

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 619:636.5:576.89:616.9:616-084

Tillayev Shuhrat Abdirahmonovich

**Mavzu: Tovuq gelmintozlarining epizootologiyasi, davolash va
ximioprofilaktikasi (Guliston tumani misolida)**

5A440108 – Hayvonlarning parazitlar va yuqumli kasalliklari

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar: veterinariya
fanlari doktori, R.B.Davlatov

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I bob.	Adabiyotlar sharhi.....	9
1.1.	Tovuq askaridiozining biologiyasi va patogenezi.....	9
1.2.	Tovuq askaridiozining epizootologiyasi.....	14
1.3.	Tovuq askaridiozini davolash va oldini olishning uslub va vositalari.....	17
II bob.	Xususiyl tadqiqotlar.....	34
2.1.	Tadqiqotlar obyekti va uslublari.....	34
2.2.	Tadqiqot o'tkazilgan xo'jalik va ilmiyl laboratoriya.....	36
2.3.	Tovuq askaridiozining epizootologiyasi.....	44
2.3.1.	Tovuq askaridiozining Sirdaryo viloyati Mirzaobod va Guliston tumanlarining xo'jaliklarida tarqalishi.....	45
2.3.2.	Tovuq askaridiozining mavsumiyligi va parranda yoshiga bog'liqligi.....	47
2.3.3	Tovuq askaridiozini gelmintsizlantirishda yangi antigelmintiklarni qo'llash.....	50
2.4.	Ishning iqtisodiy samaradorligi.....	55
III bob.	Tadqiqot natijalari bo'yicha mulohazalar.....	58
	Xulosa.....	65
	Amaliyl tavsiya.....	68
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	69
	Ilova	78

K I R I Sh

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta. Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisi kun tartibiga kiritilgan asosiy masalalardan biri – O'zbekistonning o'tgan 2015-yildagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilish va 2016-yil uchun taraqqiyot yo'limizning yeng muhim ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishdan iborat. O'tgan 2015-yil bizning bosh maqsadimiz bo'lmish asosiy vazifa – odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin yegallash bo'yicha avvalo muhim islohotlarni amalga oshirish yo'lida katta qadam bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor. Bu borada gap, avvalo, har tomonlama puxta o'ylangan, uzoqni ko'zlaydigan keng ko'lamli Dasturni hayotga joriy yetish haqida bormoqda. Ushbu Dastur mohiyat ye'tibori bilan chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, yeng muhimi, Konstitusiyamizda ko'zda tutilganidek, xususiy mulkning qonuniy, me'yoriy-huquqiy va amaliy jihatdan ustuvor rolini ta'minlash, O'zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015-yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017-yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha dunyodagi yeng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani albatta barchamizga mamnuniyat yetkazadi. Bundan tashqari, 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga yerishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida ye'tirof yetildi. O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investisiyaviy

faolligini kengaytirish ta'minlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro yekspertlar ishtirokida 2015-yilda 158 ta davlatda "Dunyoning yeng baxtli mamlakatlari" degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifoda yetadigan ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 44-o'rinni yegalladi. Aytish joizki, yurtimiz 2013-yilda bu reytingda 60-o'rinda yedi. O'tgan yili ta'lim-tarbiya sohasini yanada isloh yetish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo'ldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil yetmoqda. Bu YuNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investisiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030-yillarda 2 barobar ko'payishiga yerishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11-yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo'ladi. Aziz yurtdoshlarim! Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizasiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni so'zsiz davom yettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yeng muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur. Joriy yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko'rsatish hajmini 17,4 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Inflasiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni,

soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ana shu vazifalarni amalga oshirishda 2016-yilga mo'ljallangan Investisiya dasturining hayotga tatbiq yetilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning yeng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. 2016-yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investisiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim.

Yurtboshimiz ushbu majlisda qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning prinsipial muhim yo'nalishidir. Aytish kerakki, mazkur tarmoqda xo'jalik yuritishning fermerlik tizimiga o'tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshoqli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5-martaga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ayni paytda ana shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmi sezilarli darajada ortishini ham hisobga olish zarur.

Prezidentimiz tomonidan, 2016-yilga yurtimizda "Sog'lom ona va bola" yili deb nom berishga qaror qildik. Xalqimizning asriy an'analaridan kelib chiqqan holda, biz faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola tug'ilishiga, ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'lishiga qat'iy ishonamiz. Bu borada qabul qilinadigan davlat dasturida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash, perinatal va skrining markazlar, patronaj xizmatlarning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini

shakllantirish va mustahkamlash, yosh onalar va bolalarni parvarish qilish darajasi va sifatini oshirish, oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, qiz bolalarni jismonan sog'lom va intellektual rivojlangan yetib tarbiyalash, ularning akademik lisey va kasbhunar kollejlarida ta'lim olishi, sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

“Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir”. Davlatimiz rahbarining 1994-yil 2-may kuni O'zbekistonning birinchi davlat mukofoti – “Sog'lom avlod uchun” ordenini topshirish marosimida aytgan ushbu teran ma'noli so'zlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni ma'naviy va jismoniy tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishda asosiy yo'nalishni belgilab berdi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. O'tgan yillar davomida millat genofondini yaxshilash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, aholining turmush farovonligini va uzoq umr ko'rish darajasini oshirish maqsadida sog'lom avlod tug'ilishi va uning tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilib, izchil ishlar amalga oshirildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda 1998-yil Oila yili, 2000-yil Sog'lom avlod yili, 2001-yil Ona va bola yili, 2008-yil Yoshlar yili, 2012-yil Mustahkam oila yili, 2014-yil Sog'lom bola yili, deb e'lon qilingani hamda shu munosabat bilan tegishli davlat dasturlarining bajarilgani bu boradagi ezgu ishlarga mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Buning samarasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Sog'lom ona – sog'lom bola” konsepsiyasi xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilmoqda. Ushbu konsepsiyaning izchil amalga oshirilayotgani tufayli keyingi besh yilda mamlakatimizda har 100 ming chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to'liq erishdi.

O'zbekistonda Sog'lom ona va bola yili, deb e'lon qilingan joriy yilda ham bu boradagi izchil ishlar davom ettirilib, yanada kengaytiriladi.

Ushbu Dasturga muvofiq ko'لامي va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Aziz farzandlarimiz, mehribon onalarning, muxtasar aytganda, butun xalqimizning jismoniy sog'lomligi va ma'naviy kamolotini yanada mustahkamlash, hych shubhasiz, bizning mana shunday o'ta muhim vazifalarni qay darajada amalga oshirishimizga bevosita bog'liq bo'lib, barchamiz bu yezgu ishda o'zimizni ayamaskan, faol qatnashamiz, deb ishonaman. Qadrlı yurtdoshlar! O'tgan 2015-yilda amalga oshirgan keng ko'lamli ishlarimiz bilan faxrlanishga bugun bizning barcha asoslarimiz bor. Biz ozod va obod Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 25-yilligi keng nishonlanadigan 2016-yilga katta maqsad va rejalar bilan qadam qo'ydik. Yangi tariximizning yeng yorqin sahifasini tashkil yetadigan ana shu buyuk sanaga har tomonlama munosib va salmoqli hissa qo'shish O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun ulkan sharafdir, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman. Albatta, 2016-yil biz uchun oson bo'lmaydi, ammo, ishonchim komil – ko'pni ko'rgan xalqimizning fidokorona mehnati, azmu shijoati bilan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yangi yilimiz 2015-yildan ziyoda bo'ladi, aslo kam bo'lmaydi. Bunga hych qanday shubha bo'lishi mumkin yemas. Mana shunday olijanob maqsad yo'lida barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad yor bo'lishini tilayman.

2016-yil 9-fevralda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi tasdiqlandi. Unda «Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oyani jamiyatimizda teran anglash va qaror toptirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehtirom muhitini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash, oila institutini mustahkamlashda davlat hokimiyati organlari va

jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Respublikamizda chorvachilikni fermerlik asosida rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda va xususan, bu borada Respublikada boshqa sohalar kabi parrandachilikka ham muhim ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimiz rivojlanib borayotgan davrda, shu vaqtga qadar turli yillar ichida, Respublika Prezidenti tomonidan chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish borasida qator qarorlar, farmoyishlar ishlab chiqilgan.

Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni samarali bajarishda, "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308 va "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-842 –qarorlari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari qaromog'idagi chorva mollari hamda parrandalarning bosh sonini ko'paytirish ichki bozorni chorvachilik va parrandachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yetarli darajada ta'minlash e'tirof etilgan edi.

Yaratilgan sharoit va imkoniyatlar parrandachilik mutaxassisleri hamda ilmiy tadqiqotchilari zimmasiga aniq vazifalar qo'yib, katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki parrandachilik respublikamiz chorvachiligining asosiy tarmoqlaridan biri, uni rivojlantirish evaziga aholini parrandaning parhyez mahsulotlari hamda sanoatni parrandadan olinadigan xom ashyolar bilan ta'minlash imkoniyati ortadi. Hozirgi davr mobaynida parrandalar orasida invazion, yuqumli va yuqumsiz kasalliklari ko'plab uchramoqda. Buning boisi fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning kichik tovuqchilik fermalarida parrandalarning yerda yoki almashinmaydigan to'shamalarda asralayotganligi, bu kasalliklarni aralash holda kechishi ham ko'plab kuzatilmoqda.

Tovuq askaridiozi oqibatida katta iqtisodiy zarar kuzatilib, jo'jalarning

ko'plab o'lishi, o'sish va rivojlanishdan orqada qolishi, mahsuldorlik va go'sht sifatining pasayishi, oziqa sarfining ortishi, veterinariya harajatlarining ko'payishi bilan ifodalanadi. Respublikamizning parandachilik xo'jaliklari, shaxchiy yordamchi xo'jaliklari kasallikdan ko'p miqdorda zarar ko'radi.

Sohadagi bu islohotlar, tovuqchilikning bugungi kunda aksionerlik jamiyatlarida, dehqon, fermer va shaxsiy xo'jaliklarda bosh soni ko'payib, ular cheklangan joylarda, simli katakchalarda yoki to'shamalar ustida, sun'iy yorug'likda asralayotgan bir vaqtda ularning orasida turli xil stress faktorlar sababli gelmintoz kasalliklar bilan kasallanishi tez - tez uchrab turadi. Natijada yosh parrandalarining ko'pchiligi nobud bo'lishiga sabab bo'ladi, qolganlari esa o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi. Ular kelajakda foydalanishdan chetlatilib, yetishtirilayotgan parranda mahsulotlari tannarxining oshishiga olib kelib, xo'jalikka katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Shunday ekan, parrandachilik tarmog'i, tovuqlar orasida kelib chiqadigan invazion kasalliklardan tovuq askaridiozi eng asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Jo'jalarga xos bu gelmintoz kasallik bilan xo'jalikda 80-90 % parrandalar kasallanadi. Ularning 30% idan ortig'ida o'lim holatlari kuzatiladi. Va yana 20-30 % igachasi o'sish, rivojlanishdan orqada qolishi isbotlangan. Xo'jalikning 70 % gacha tovuqlar mahsuldorligi kasallik oqibatida 20 % ga kamayadi ulardan olinadigan tuxum sarig'ida "A" vitamini karotinlari kamayishi natijasida inkubasiyada 15 % gacha tuxumlardan jo'ja olinmaydi, ochib chiqmaydi. Adabiyot ma'lumotlaridan ma'lumki, broyler xo'jaliklarida har bir parranda 42 kun davomida 120 grammgacha vaznlarini yo'qotadi. Ushbu parrandalar so'yilganda esa, 5% go'sht, 1,42 % oqsil va 8 % yog' kam chiqadi.

Kasallikka qarshi kurash tadbirlari ketgan sarf xarajatlar miqdori yuqori bo'lib, xo'jalik uchun iqtisodiy zarari kattadir. O'z vaqtida qarshi kurash choralari ko'rilmagan paytlarda yashirin tarzda kechayotgan bunday buzilishlar ma'lum vaqt oralig'ida muayyan kasallikka xos bo'lgan yaqqol klinik belgilarni namoyon etadi.

Tovuq askaridiozining xo'jalikda tarqalishini, uning manbaini, kasallikni o'z vaqtida aniqlash va ularga qarshi samarali davolash va oldini olish choralarini ishlab chiqish veterinariya fani va amaliyoti oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tovuqlarning askaridioziga qarshi kurashishning ilmiy asoslarini yaratishda olimlardan E.H.Ergashev, I.V.Sissev, A.V.Jabborov va T.V.Sisoyevalar (1972) Davlatov. R.B., Ibragimov D. (1993), A.O.Oripov va T.D.Saruxanyanlar (1989), T.Abdurahmonov, T.To'laganovlarning (2004) lar o'zlarining katta hissalarini qo'shishgan. Lekin shunga qaramasdan, respublikamizning parrandachilik xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari sharoitida tovuqlarda askaridiozlari hamda ularni samarali davolash va oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan bo'lsada, bugungi kunda ham xo'jaliklarda ko'p uchragani uchun zamonaviy qarshi kurash usul va vositalarini takomillashtirishni zarur deb hisoblanadi.

Ilmiy rahbarim v.f.d. R.B.Davlatov bilan Samarqand qishloq xo'jalik instituti veterinariya fakulteti, "Hayvonlar yuqumli va kasalliklari" kafedrasida laboratoriyalarida "Tovuq askaridiozining epizootologiyasi va ximioprofilaktikasiga bag'ishlangan magistrlik dissertasiyamni fakultet qoshidagi vivariyada, Guliston tumani parrandachilik xo'jaliklari hamda O'zVITI ning tegishli laboratoriyalarida tekshiruv va bir necha turli davlatlarda ishlab chiqilgan yangi preparatlarni samaradorliklarini o'rgandik.

Chunki, ko'pchilik parrandalar tovuqchilik fermalarida, moslashtirilgan binolarda va veterinariya-sanitariya nazoratisiz tashkil etilayotgan, asralayotgan parrandalar orasida turli yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning tarqalish xavfini oshirib, epizootologik holatni murakkablashtiradi va tarmoq iqtisodiga katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Xususan, parrandachilik xo'jaliklarida 2 oylik 8 oylik jo'jalar orasida ko'p uchrovchi askaridioz kasalligi oqibatida kasallangan parrandalarning 20 -30 % - gacha o'lishi, 20 – 30% - gacha o'suvdan qolishi (sog'lomlari bilan taqqoslanganda), yosh tovuqlarning kechikib tuxum berish, mahsuldorligining

pasayishi, davolash uchun dori-darmon va oziqa sarf-xarajatining ko'payishi evaziga iqtisodiy zarar miqdorlari ortadi.

Mavjud muammoning dolzarbligini inobatga olgan holda biz tovuqlar orasida ko'p uchrovchi askaridiaz kasalligiga bag'ishlab o'tkazilgan kichik tadqiqot va xulosalarimizni quyida bayon qilamiz.

Bugungi kunda parrandachilik asosan aksionerlik jamiyatlarda, dehqon fermer va shaxsiy xo'jaliklarda asralib ko'paytirilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin parrandalarning eng mahsuldor zotlari xorijiy mamlakatlardan keltirilib asralmoqda. Ularning zotlari mahsuldor bo'lganligi sababli tovuqlarni to'liq rasionli ya'ni oqsilga boy, vitaminli, mineralli, mikroelementli oziqa qo'shimchalarini berib zoogigiyena talablariga to'lig'icha e'tibor berilgan vaqtdagina mo'ljallangan mahsuldorlikga erishish mumkin bo'ladi.

Chunki ularning organizmida moddalar almashinuvi intensiv kechganligi sababli to'liq rasionli oziqa bilan oziqlantirish maqsadga muvofiqdir.

Tayyor oziqalar texnika yordamida moslamalar orqali tarqatiladi. Ularning shovqinlari, oziqa tarkibidagi komponentlarning kamligi yoki miqdorining ko'payib ketishi hamda ayrimlarining umuman qo'shilmay qolishi, 60- 120 kunligida saralash (zootexnik bonitirovka), yorug'likning tez-tez o'chishi, oziqaning almashishi, haroratning o'zgarishi, begona odamlarning hamma texnikaning tovuqxonaga kirishi, sifatli sanasiya o'tkazilmaganida va ko'pgina shunga o'xshash kamchiliklar orqali ular orasida turli xil kasalliklar kelib chiqadi.

Tadqiqot maqsadi. Sirdaryo viloyati Guliston tumanining parrandalari orasida tovuq gelmintozlarning tarqalishini o'rganish, Guliston tumani sharoitida gelmintologik tekshirish o'tkazish yo'li bilan tovuqlar orasida asosiy gelmintozlarni epizootologik xususiyatlarini o'rganish, tovuqlar orasida asosiy gelmintozlariga qarshi chora tadbirlarini belgilash.

Tadqiqot vazifalari:

- Sirdaryo viloyati Guliston tumani sharoitidagi tovuqlari orasida epizootologik holatini o'rganish;

- kasallikning patogenezi;

viloyatning ayrim tuman va xo'jaliklarida tovuq gelmintozlari bo'yicha epizootik holatni yangilash;

- tovuq gelmintozlarini oldini olish;

- tovuq gelmintozlarini davolashda yangi ximioterapevtik preparatlarni qo'llash.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti Sam QXI ilmiy laboratoriyasi fakultet vivariyasi va Sirdaryo viloyati Mirzaobod, Guliston va Boyovut tumanining ayrim parrandachilik xo'jaliklarida amalga oshirildi hamda O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot instituti bilan hamkorlikda o'tkazildi. Olingan natijalar O'zbekiston respublikasining parrandachilik yo'nalishida kasalliklarni profilaktika qilish shu bilan birga davolash maqsadida tadbiq etildi. Ijobiy natijalar ilmiy maqolalar va qo'llanmalar tarzida ishlab chiqilib, chop etildi.

A.galli va H. Gallinarum gelmintlarining tarqalishi darajasi, mavsumiylik dinamikasi, parranda yoshiga va ularni asrash texnologiyasiga bog'liqligi xususiyatlarini o'rganishda gelmintoovoskopik (Darling va Flyulleborn bo'yicha) hamda noto'liq gelmintologik yorib ko'rish (K.I.Skryabin, E.H.Ergashev) usullaridan foydalanildi. Shuningdek tovuqxonalardan, tezak namunalardan olinib gelmintoovoskopik tekshiruv o'tkazildi. Antgelmintik xususiyatlarini tekshirilayotgan dorilar har xil shakllarda (poroshok, granula) yemga aralashtirib parrandalar sinovdan o'tkaziladi. Tovuqlarga sinalayotgan dorilarni berishdan avval jo'jalarning askaridiylari bilan ekstens va intens invaziyalanish darajalari gelmintoovoskopik usullarda tekshirib aniqlandi. Shuningdek, bu tekshiruvlar preparat berilgandan keyin 1, 3, 6, 12, 24, 36, 48, 60 va 72 – soatlarda (3 kecha – kunduz) amalga oshirilib gelmint tuxumlarining intensivligi pasayib borishi va ajralmay qolgunga qadar o'rganildi. So'ngra esa

tajribalardagi jo'jalar noto'liq gelmintolik yorib ko'rildi. Foydalangan dorilarning miqdori parrandalarning o'rtacha 1 kg tirik vazniga hisobida olinadi. Buni hisoblashda quyidagi formuladan foydalanildi:

$$X = \frac{O' \times L \times S}{I}$$

Bu yerda, **X**- parrandalarni gelmintsizlantirish uchun zarur bo'lgan dorining miqdori;

O'—tovuqlarning o'rtacha tirik vazni.

L—1kg tirik vaznga mo'ljallangan dorining miqdori.

S—gelmintsizlantirilayotgan tovuqlarning bosh soni.

I—preparat tarkibidagi asosiy dori moddaning miqdori (%).

Tovuqlarning bosh soni va zarur miqdordagi dori tortib tayorlangan har bir bosh tovuq hisobiga kunlik rasionining 5-10 grammni tashkil etuvchi yem tortib olinadi va dastlab uning kamroq qismida sinalayotgan (poroshok yoki granula holidagi) dori aralashtiriladi. So'ngra esa ushbu "dorili aralashma" yemning qolgan qismi bilan yaxshilab ishqalab aralashtiriladi. Sifatli tayorlangan dorilarni yem aralashmasi invaziyalangan parrandalarning oxurlariga bir xil qalinlikda solindi va tovuqlarning ishtaxalari hamda yeb tugatish davri kuzatiladi. Gelmintsizlantirish natijalarining samaradorligi Styuard Rayvek formulasi asosida aniqlanadi va foizlarda ifodalanadi.

$$S = \frac{A \times B}{100}$$

Bunda, **A**—nazoratdagi parrandalar organizmidagi parazitlarning o'rtacha soni;

B—gelmintsizlashtirilgan parrandalar organizmidagi parazitlarning o'rtacha soni;

Tadqiqotlarni amalga oshirishda laboratoriya sharoitida 5-seriyada tajribalar o'tkaziladi. Ularni eksperimental zararlash uchun P.T.Tvordoxlebov (1965) usuli bo'yicha o'stirilgan askaridiyning invazion tuxumlarini shprisli zond yordamida 1000 nusxadan parranda jig'ildoniga yuboriladi. Ushbu tajribalarda yangi dori antigelmintiklarning bir nechtasining samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Qo'llanilgan dorilar har xil yoki bir necha martadan berib ko'rildi.

Shuningdek yuqori samara bergan ayrim antgelmintiklar parrandachilik fabrikalari va tovuqchilik xo'jaliklari sharoitida sinovdan o'tkazildi.

Ilmiy yangiligi.

Ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, tovuqlarda tovuq gelmintozlarining etiopatogenezi hamda organizmda sodir etiladigan patomorfologik va boshqa klinik o'zgarishlar tadqiq etildi.

Askaridioning epizootologiyasi, mavsumiy tarqalishi uning profilaktikasi va davolashda yangi vositalar qo'llanildi, tajribalarda sinab ko'rib samarali natijalar amaliyotga joriy qilindi.

Askaridioning kechishida epizootologik, klinik, patologoanatomik va diagnostik tekshiruv bo'yicha yangi ma'lumotlar olindi.

Yangi dorili aralashma hamda qarshi kurashishning takomillashgan usul va vositalari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Tadqiqotning asosiy masalalari. Sirdaryo viloyati Mirzaobod va Guliston tumanlari parrandachilik xo'jaliklari sharoitida asralayotgan tovuqlar orasida askaridioning tarqalishi, sabablari, tashxis usullari, davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning farazlari:

- tovuq gelmintozlari bugungi kunda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda ko'p uchrayotgan kasalliklardan hisoblanadi va shu boisdan ularga ertachi tashxis usulini ishlab chiqish;

- tovuq askaridionlarida yangi antigelmintiklarni va qo'shimcha oziqa aralashmalarini qo'llashga asoslangan holda askaridionning oldini olish usulini ishlab chiqish.

- tovuqlarda askaridionning davolash usullarini takomillashtirish.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Respublikamiz xo'jaliklarida parvarishlanayotgan parrandalarda askaridionning tarqalishi, sabablari, kechish xususiyatlari to'liq

o'rganilgan bo'lsada, ammo hozirgi kunda parrandachilik fermer xo'jaliklariga olib keltirilib asralib paravarishlanayotgan yuqori mahsuldor tovuq va jo'jalarda yangi preparatlarga samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilib boriladi. Parrandalarda hayotining boshlarida bu kasallik ko'p qayd etilmoqda.

E.H.Ergashev, I.V.Sissev, A.V.Jabborov va T.V.Sisoyevalar (1972) Samarqand viloyatidagi ayrim xo'jaliklarning tovuqchilik fermalarida parrandalar 63,1 % gacha askaridalar bilan zararlanganliklarini, shuningdek invazion barcha yoshdagi parrandalar orasida va yilning barcha fasllarida uchrashini etirof etganlar. R.B.Davlatov (1993) ning, Imonov N. ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalarida joylashgan tovuqchilik xo'jaliklarida askaridioning ekstens invazyalanish darajasi 71,3 % ni, geterakidioning 25,33% ni tashkil etsa tog' va tog' oldi mintaqalarida mos ravishda 58,9 va 26,56 % ni hamda dasht –cho'l mintaqalari 53,68 va 11,96 % tarqalishiga ega bo'ldi. Askaridion va geterakidion gelmintozlarining ekstensivlik darajasi respublikamiz parrandachilik xo'jaliklarida bahor va kuz fasllarida yuqori nuqtaga ko'tariladi (63,82 va 15,5% hamda 78,73 va 23,83%) yoz hamda qish mavsumlarida birmuncha pasayib, mos ravishda 61 va 27,7 % hamda 50,23 va 21,59 % ni tashkil etadi. A.P.Po'latovning (1931) ta'kidlashicha, Samarqand viloyati xo'jaliklarida tovuq askaridioni ko'p uchrovchi gelmintoz ekanligi qayd etiladi. Muallifning tekshiruviga ko'ra invaziya mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, tovuqlar 30 -60% gacha 6 oylikgacha bulgan yosh parrandalar esa 60% gacha zararlangan. Askarida tuxumlari barcha joylarda – devorda, kataklarda, oxurlarda sug'orgichlarda va to'shamalarda va ham uchraydi. T.D.Saruxanyan (1989) O'zbekistonnig turli xildagi xo'jaliklari sharoitida tovuqlarning asosiy gelmintlarini o'rganib, ularning turini qayd qiladi va eng ko'p tarqalganlari sifatida vivariy (66,7%) va geterakidionlarni (10,6%) e'tirof etadi. Gelmintlarning ekstensivligi tovuqchilik fermasi va yordamchi hamda xususiy xo'jaliklarda yuqori ekanligini (39,9 - 91,3 %) hamda tovuqxonalarning to'shamalarida (100 %), oxurlarda (60 %) va devorlarda (20%) doimiy ravishda gelmint tuxum va lichinkalari saqlanadi. T.D

Saruxanyan (1989) ma'lumot berishicha invaziyaning ekstensivligi respublikaning ayrim tovuqchilik xo'jaliklarida o'rtacha 49% ni tashkil etadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. A.galli va H. Gallinarum gelmintlarining tarqalishi darajasi, mavsumiylik dinamikasi, parranda yoshiga va ularni asrash texnologiyasiga bog'liqligi xususiyatlarini o'rganishda gelmintoovoskopik (Darling va Flyulleborn bo'yicha) hamda noto'liq gelmintologik yorib ko'rish (K.I.Skryabin, E.H.Ergashev) usullaridan foydalanildi. Shuningdek tovuqxonalardan, tezak namunalardan olinib gelmintoovoskopik tekshiruv o'tkazildi. Antigelmintik xususiyatlari tekshirilayotgan dorilar har xil shakllarda (poroshok, granula) yemga aralashtirib parrandalar sinovdan o'tkazildi. Tovuqlarga sinalayotgan dorilarni berishdan avval jo'jalarning askaridiylari bilan ekstens va intens invazyalanish darajalari gelmintoovoskopik usullarda tekshirib aniqlandi. Shuningdek, bu tekshiruvlar preparat berilgandan keyin 1, 3, 6, 12, 24, 36, 48, 60 va 72 – soatlarda (3 kecha – kunduz) amalga oshirilib gelmint tuxumlarining intensivligi pasayib borishi va ajralmay qolishi o'rganildi. So'ngra esa tajribalardagi jo'jalar noto'liq gelmintolik yorib ko'rildi. Foydalangan dorilarning miqdori parrandalarning o'rtacha 1 kg tirik vazniga hisobida olindi.

$$X = \frac{O' \times I \times S}{L}$$

Bu yerda, **X**- parrandalarni gelmintsizlantirish uchun zarur bo'lgan dorining miqdori;

O'—tovuqlarning o'rtacha tirik vazni.

L—1kg tirik vaznga mo'ljallangan dorining miqdori.

S—gelmintsizlantirilayotgan tovuqlarning bosh soni.

I—preparat tarkibidagi asosiy dori moddaning miqdori (%).

Gelmintsizlantirish natijalarining samaradorligi Styuard Rayvek formulasi asosida aniqlandi va foizlarda ifodalanadi.

$$S = \frac{A}{100} \times 100$$

Bunda, **A**—nazoratdagi parrandalar organizmidagi parazitlarning o'rtacha soni;

B—gelmitsizlashtirilgan parrandalar organizmidagi parazitlarning o'rtacha soni;

Ularni eksperimental zararlash uchun P.T.Tvordoxlebov (1965) usuli bo'yicha o'stirilgan askaridining invazion tuxumlarini shprisli zond yordamida 1000 nusxadan parranda jig'ildoniga yuborildi. Ushbu tajribalarda yangi dori antigelmintiklarning bir nechtasining samaradorligi sinovdan o'tkazildi. Qo'llanilgan dorilar har xil yoki bir necha martadan berib ko'rildi.

Shuningdek yuqori samara bergan ayrim antigelmintiklar parrandachilik fabrikalari va tovuqchilik xo'jaliklari sharoitida sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O'zbekistonnig turli xildagi xo'jaliklari sharoitida tovuqlarning asosiy gelmintlarini o'rganib, ularning turini qayd qiladi va eng ko'p tarqalganlari sifatida askaridiaz (66,7%) e'tirof etadi. Gelmintlarning ekstensivligi tovuqchilik fermasi va yordamchi hamda xususiy xo'jaliklarda yuqori ekanligini (39,9 - 91,3 %) hamda tovuqxonalar to'shamalarida (100 %), oxurlarda (60 %) va devorlarda (20%) doimiy ravishda gelmint tuxum va lichinkalari saqlanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, yangidan yaratilgan «Guliston tumani parrandachilik xo'jaliklarida tovuq askaridiazining tarqalishi, davolash va ximioprofilaktikasi»ni Respublikamizdagi tovuqchilikka ixtisoslashgan barcha xo'jaliklardagi parrandalarda askaridiazning sabablarini aniqlash, tashxis qo'yish, davolash, ximioprofilaktika va oldini olish maqsadida foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalarini qishloq xo'jalik oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalarining veterinariya ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv dasturlariga kiritish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertasiya ishi 87 bet kompyuter yozuvida berilgan va uning tarkibi 3 ta bob – adabiyotlar sharhi, xususiy tadqiqotlar, tadqiqot natijalari bo'yicha mulohazalar, xulosalar, amaliy tavsiyalar, 4 ta jadval va 12 ta rasmdan iborat. Adabiyotlar ro'yxati 41 ta bo'lib, shundan 9 tasi xorijiy manbalardan olingan.

1. ADABIYOTLAR ShARHI

1.1. Tovuq askaridiozining biologiyasi va patogenezi

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Respublikamiz xo'jaliklarida parvarishlanayotgan parrandalarda askaridiozning tarqalishi, sabablari, kechish xususiyatlari to'liq o'rganilgan bo'lsada, ammo hozirgi kunda parrandachilik fermer xo'jaliklariga olib keltirilib asralib paravarishlanayotgan yuqori mahsuldor tovuq va jo'jalarda yangi preparatlarga samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilib boriladi. Parrandalarda hayotining boshlarida bu kasallik ko'p qayd etilmoqda.

Tovuq askaridiozining biologiyasi – urg'ochi askaridiylar tovuqning ingichka ichagiga tuxum qo'yadi. Tashqi muhitga tushgandan keyin issiqlik va namlik yetarli bo'lganidan keyin lichinka paydo bo'ladi. U tullagandan keyin yetilib, invazion shaklga aylanadi.

Tovuq oziqa yoki suv bilan invazion tuxumni yutib yuborib zararlanadi. Tovuqning jig'ildonida tuxum po'sti parchalanib, ichidan chiqqan lichinkasi ichak bo'ylab harakat qiladi, u ingichka ichakda joylashadi.

Amaliyotdan ma'lumki, parazitar kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi samarali tadbirlar o'tkazish uchun mazkur kasalliklar qo'zg'atuvchilarning, jumladan, gelmintlarning rivojlanishi jarayonini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz o'z tadqiqotlarimizda o'rgangan gel'mint *Ascaridia galli* (Schrunk 1783) – geogelmint bo'lib, tashqi muhit sharoitida hamda asosiy xo'jayin - tovuqlar ishtirokida rivojlanadi (A.N.Chertkova, A.M.Petrov , 1961).

Ayni paytgacha izlanuvchilar o'z tekshiruvlarida askaridiylar biologiyasining har hil jihatlari tadqiq etilgan.

Biz quyida ularning ayrimlarini qayd etib o'tishni lozim topdik.

G.A.Grigorin, R.A.Xanbekin va N.I.Akopyanlar (1964) Yerevan shahrida shikastlanmagan tovuq tuxumining oqsilida tirik va harakatchan yetuk askaridiyni uchratishgan. Bunda chuqur tekshiruv o'tkazilib shu narsa ma'lum

bo'ldiki, tuxumning sariq qismi buzilmasdan butunligicha saqlangan. Tuxum oqsilida ham keskin o'zgarishlar bo'lmasdan kam miqdorda to'planib qolgan ko'piksimon moddaning mavjudligi aniqlangan. Qaysini gelmintning metabolitlari deb faraz qilingan. Mazkur gelmintlar morfologik jihatdan o'rganilganda uning jinsiy yetuk urg'ochi *Ascaridia galli* ekanligi hazm organlari va bachadonning yaxshi rivojlanganligi hamda unda ko'p sonli shakllangan tuxumlarning borligi ta'kidlanadi.

I.N. Ilyosovning (1965) ma'lumotberishicha, Markaziy Tojikiston sharoitida askaridiy tuxumlari invazion bosqichga qadar quyidagi muddatlarda rivojlanadi.

Rivojlanish bosqichlari:

A) Bahorda tovuqxonalarda -28-62 kun,

tashqi muhitda -12-14 kun,

soya joylarda 15 - 29 kun,

5sm gacha qalinlikdagi tuproqda 32-55 kun,

10 sm gacha qalinlikda -33-70 kun,

20 sm gacha qalinlikda – 35-85 kungacha cho'ziladi.

B) Yozda tovuqxonada -9 kun,

iyun oyida tashqi muhitda rivojlanish bo'lmaydi

5sm qalinlikdagi tuproqda – 7-8 kun,

10 sm qalinlikdagi tuproqda 8-9 kun,

20 sm qalinlikdagi tuproqda 8-11 kun davom etadi.

V) Kuzda tovuqxonalarda -12-29 kun,

tashqi muhitda 12 kun,

5, 10 va 20 sm tuproq qalinligi sharoitida esa mos ravishda 26-23 kun va 24 kungacha rivojlanadi.

G) Qishda esa tashqi muhit sharoitida gel'mint tuxumlari taraqqiy etmaydi.

Invazion tuxumlarining hayotchanligi ham turlichadir.

A) Bahorda tovuqxonalarda -10-20 kundan keyin nobud bo'lsa,

tashqi muhitda 3-15 (may oyida 5 kungacha) kun,
5 sm tuproq qalinligi sharoitida – 23 – 30 kun mobaynida,
10 sm tuproq qalinligi sharoitida 20-28 kun,
20 sm tuproq qalinligi sharoitida 20-23 kungacha yashaydi.

B) Yozda tovuqxonalarda 9-11 kun,
ochiq muhitda esa 4-5 kun,
soya joyda 5-6 kun,
5 sm tuproq qalinligi sharoitida 12-15 kun,
10 sm tuproq qalinligi sharoitida 11-15 kun,
20 sm tuproq qalinligi sharoitida 12-14 kun hayot kechiradi.

V) Kuzda sentyabr' oyida tovuqxonalarda 17 kun,
oktiyabrda esa 23 kun,
tashqi muhitda 3-6 kun,
5-20 sm tuproqda 32-35 kungacha yashay oladi.

G) Qish faslida esa invazion bo'lmagan tuxumlar tirik saqlanib maqbul sharoit mavjud bo'lganda bemalol invazion bosqichga qadar rivojlana oladilar.

B.N.Nug'ay (1966) o'z tadqiqotlarini Olma-ota viloyati sharoitida o'tkazib askaridiy tuxumlari tovuqxonalarda may oyida 36 kun iyulda 18-20 kun, avgustda 21 va sentiyabrda 36 kun davomida invazion bosqichga qadar rivojlanishini kuzatadi.

X.S.Mo'minovaning (1968) ta'kidlashicha askaridiy tuxumlari laboratoriya sharoitida $+18^0$ $+35^0$ S issiq haroratda yaxshi rivojlanadi. Tuxumlarning invazion bosqichga qadar rivojlanish muddatlari har hil bo'lib o'rtacha 28-48 kunini tashkil etadi.

Ascaridia galli ning lichinkalari jo'jalarning ingichka bo'lim ichaklarida tuxumdan chiqadi va birinchi kunning o'zidayoq ichak shilliq qavati va lyuberkyun bezlarga kirib oladi. Zararlanishning 20 -kunida esa lichinkalar ichak bo'shlig'iga chiqadi.

Jinsiy voyaga yetgunga qadar rivojlana boshlaydi.

Askaridiylarning xo'jayin organizmida yetuk gelmintlarga aylanish

shiddati 42-44 kungacha davom etadi.

Gelminrlarning biologiyasi va ekologiyasi muommolarini chuqur urgangan olim I.A.Volichkinning (1968) fikricha barcha gel'minrlarning rivojlanishida iqlim sharoitining harorat namlik, kurish va kuyosh nurlarining doimiy ta'siri mavjud.

V.V.Kurashvili (1968) shuni ma'lum qiladiki askaridiylar hujayin organizmi to'qimalari bilan emas balki faqat ichak bushlig'i oziq massasi bilan oziqlanadi.

Askaridiy lichinkalari organizmga tushgach 3-8 kunlarda ichak shilliq qavatining epiteliylarida bo'lishi haqidagi ma'lumotni Nicuiescu AL. Donciu (1969) bayon qiladi.

L.TAzaryan (1969) Rostov viloyati sharoitida o'tkazgan tajribalari yakunida shuni takidlaydiki 18-20 sm qalinlikdagi tuproqda yashovchi askaridiy tuxumlari bahor-yoz faslida 30 kundan keyin kuz-qish mavsumida esa 60 kun utgach nobud bo'ladi.

Ye.Merqulov va P.Velichkinlar (1971) shimoliy kavkazning tog' oldi sharoitida ko'plab tajribalar o'tkazib, shuni e'tirof etadiki, askaridiy tuxumlarining hayot faoliyati 2 davrga: anabioz va metamorfoz (rivojlani) davrlariga bo'linadi. Ya'ni oktyabr aprel oylarida askaridiy tuxumlari anabioz (kam rivojlanish) holatida bo'lsa, may-sentyabr oylarida esa metamorfoz davri boshlanadi.

A.Simonovning (1973) kuzatish ma'lumotlaricha, moskva viloyati parrandachilik fabrikalari sharoitida askaridiy tuxumlarining ko'pchilik qismi qish faslida ham rivojlanishning xar xil bosqichlarida o'z hayotchanligini saqlab qoladilar va bahorda parrandalarni zararlash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Ye.Merqulov (1974) ma'lumot berishicha, tuproq chuvalchangalri tuproqni invaziyadan tozalamaydi, aksincha, askaridiylarning invazion lichinkalarini 7 oygacha o'z organizmida saqlab, ularning rezervuar xo'jayini sifatida faoliyat ko'rsatadi.

R.Davlatovning (1993) ta'kidlashicha, askaridiy tuxumlarining rivojlanishi

uchunpast quyi harorat + 13⁰ S ni va eng yuqorisi + 36⁰ S ni tashkil qiladi.

F.Davletmendov va D.Azimovning (1973)ta'kidlashicha, askaridiy tuxumlarining rivojlanishi muhit harorati bilan uzviy bog'liq bo'lib, respublikamiz sharoitida 5-6- kundan 25-26 kungacha davom etishi mumkin. Oktyabr va mart oylarida lichinkalar tirik saqlansada, lekin rivojlanmaydilar. Sakaridiylar xo'jayin organizmi ichaklari bo'shliqlariga zararlashning 18 – kuni chiqa boshlaydilar. Ularning parazitlik davri esa 8-14 oygacha cho'zilishi mumkin.

Tovuqning lyuberkyun bezlarining ichida lichinkalar 20 kun davomida rivojlanib, ingichka ichakka o'tgach, jinsiy voyaga yetadi. Buning uchun 35-38 kun vaqt kerak bo'ladi.

Gelmintlarning biologiyasi va ekologiyasimuammaolarini chuqur o'rgangan olim P.A.Volchinkaning (1968) fikricha, barcha gelmintlarning rivojlanishida iqlim sharoitining harorat , namlik, qurish va quyosh nurlarining doimiy ta'siri mavjud.

Askarnidiy lichinkalari organizmga tushgach 3-8- kunlari ichak shilliq qavatining epiteliy qavatlarida bo'lishi haqidagi ma'lumotni Nikulesku Al. Donkiu Ovanso (1969) bayon qilgan.

P.A.Velichkin va Ye.V.Merqulovlarning (1970) askaridiy tuxumlarining hayotchanligini qisqartirish uchun tovuqxona va yayrash maydonlarining polini qattiq jismlardan qilib, ilova boricha namlikni kamaytirishni maslahat berganlar.

Askaridiaz tuxumlarining anabioz davrida tashqi muhitning salbiy omillariga nisbatant ortishi haqidagi ma'lumot V.Vinokurov (1982) tomonidan bayon etilgan.

J.A.Agapov va A.K.Karliyevlar (1983) Ashxabodning naslchilik xo'jaliklarida o'tkazgan tadqiqotlarida shuni e'tirof etadilarki, askaridiy tuxumlari yilning dekabr- mart oylaridaanabioz holatida bo'lib, may oyidan boshlab avj olib rivojlanadi. Tashqi muhitda rivojlani 10-13 kungacha davom etadi. Yoz faslida esa bu jarayon 6-7 kungacha qisqaradi. Tovuxonalarda bu muddat 6-15-21 kun atrofida bo'lib, yil fasllariga bog'liq bo'ladi.

V.Vinokurov (1986) o'z tajribasida xar xil turdagi askaridatlarning namlikning va haroratning yetishmovchiligiga chidamlilik darajasi turlicha bo'lishini e'tirof etadi.

Askaridiy lichinkalari ichak shilliq pardalarini teshib ichak surg'ichlaini qitiqlab, liberkyun bezlarini jaroxatlaydi. Natijada ichak devorlariga qon quyiladi yallig'lanadi patogen mikroob va viruslar uchun yul ochiladi. Voyaga yetgan askaridylarning kupligidan ichak tiqilib devori yorilib ketishi mumkin.

Askaridiylar toksik modda ajratib tovuq organizmi surunkali zaxarlaydi. Natijada jujalarning usishi va rivojlanishi sekinlashadi, tovuqlar kam tuxum qiladi. Tovuq askaridiy tuxumini yutgandan keyin lichinkalari ichak bezlariga tushgan zaxoti organizmda sezilarli uzgarish bulmaydi. Lichinkalar usishi bilan ichak devorlarini jaroxatlab shilliq pardani yalig''lantiradi. Natijada lichinkalar kp tupalangan yerda birikuvchi to'qima o'sib bu to'qima parazitlarning qitiqlab jaroxatlangan joy petrofiksyalanadi. Ichak parenximatoz organlarda ayniqsa jigarda qon turg'unligi rivojlanadi.

Ichak shilliq pardasi va muskullardagi gangiliya tugunlarining xujayralarida va nerv tolalarida xam uzgarishlar ro'y beradi. Bunday uzgarishlar nerv tolalarining varikoz kengayishi bilan ifodalanib ichki gangliyada ko'pgina nerv tolalari tirishib ularning uzagi piknatik uzgaradi.

1.2. Tovuq askaridiozining epizootologiyasi

Askaridiozlar tabiatda juda keng tarqalgan kasalliklardan bo'lib, ular parrandalardan tashqari ko'pchilik tur hayvonlarda uchraydi va katta iqtisodiy zararga olib keladi. Tovuq askaridiozi parrandalar, ayniqsa, o'suvchi jo'jalar orasida juda ko'p uchraydigan gelmintozlardan bo'lib, tovuqlarning ingichka bo'lim ichaklarida parazitlik qilib, og'ir asoratlar sodir etadi va xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Kasallik qo'zg'atuvchisi *Ascaridia galli* nematodalari hisoblanadi. Askaridioz kasalligi asosan 2 oylikdan 8-10 oylikkacha bo'lgan tovuqlar kasalikka chalinadi. Bir yoshdagi tovuqlar odatda kasalanmaydi lekin kasallik manbai bo'lishi mumkin.

Jo'jalar va yosh tovuqlar orasida ko'p uchraydigan bu gelmintoz

kasalligini Ascarida galli qo'zg'atadi va tekinox'rlar ingichka ichakda joylashadi. Bu kasallik tovuqlardan tashqari kurka, tovuq, sesarkalarda ham uchraydi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra Respublikamiz miqyosida tovuqlar yoshiga qarab 53,7-78,7% gacha askaridoz bilan kasallanadi (Davlatov R.B.).

Suv yoki oziq bilan askaridining invazion tuxumini yutganda kasallik yuqadi. Gelmint tuxumining rivojlanishi uchun harorat 17° - 30° S darajada, nisbiy namlik esa 100% gacha bo'lishi lozim.

Tovuq yayratiladigan maydonchalarda askaridiy tuxumi (may va avgust oylarida) 15-35 kunligi rivojlanadi. Bu vaqtda qalinligi 4 sm ga yetmaydigan tezakdagi tuxum invazion davriga yemasdan xalok bo'ladi.

Sentyabrdan to aprelgacha askaridiy tuxumlari o'lmaydi va rivojlanmaydi. Lekin bu davrda lichinkasi rivojlanib yetilgan tuxumlari qish faslida halok bo'ladi.

Shunday qilib, kasallik yuqqan tovuqlar va qishdan tirik chiqqan askaridiy tuxumlari jo'jalarga askaridiaz kassaligini yuqtiradigan asosiy manba hisoblanadi.

Yoz faslida askaridiy tuxumlari 15-35 kunda rivojlanadi. Tovuq tezigidagi askaridiy tuxumlari 1-1,5 kunda quyosh nurlari ta'sirida invazion xususiyatlarini yo'qotadi va zararsizlanadi. Qishda nobud bo'lmay qolgan tuxumlar jo'jalarga kasallikni yuqtiradi. Askaridiylar tovuq organizmida 9-14 oygacha parazitlik qiladi. Invaziya iqlim va xo'jalik sharoitiga qarab ko'p yoki oz tarqaladi. Parrandachilik xo'jaliklariga invaziya ayniqsa sentyabr – oktyabr oylarida ko'p tarqaladi jo'jalarni tovuqlarga qo'shilgandan keyin invaziya yana kuchayadi. Noyabr - yanvar oylarida invaziya ayniqsa ko'p tarqalib may oyigacha bir meyorda turadi undan keyin pasaya boradi.

E.H.Ergashev, I.V.Sissev, A.V.Jabborov va T.V.Sisoyevalar (1972) Samarqand viloyatidagi ayrim xo'jaliklarning tovuqchilik fermalarida parrandalar 63,1 % gacha askaridalar bilan zararlanganliklarini, shuningdek invazion barcha yoshdagi parrandalar orasida va yilning barcha fasllarida uchrashini etirof etganlar. A.P.Po'latovning (1931) ta'kidlashicha, Samarqand

viloyati xo'jaliklarida tovuq askaridiozi ko'p uchrovchi gelmintozi ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotchilarning tekshiruvlariga ko'ra invaziya mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, tovuqlar 30 - 60% gacha 6 oylikgacha bulgan yosh parrandalar esa 60% gacha zararlangan. Askarida tuxumlari barcha joylarda – devorda, kataklarda, oxurlarda sug'orgichlarda va to'shamalarda va ham uchraydi. T.D.Saruxanyan (1989) O'zbekistondagi turli xildagi xo'jaliklari sharoitida tovuqlarning asosiy gelmintlarini o'rganib, ularning turini qayd qiladi va eng ko'p tarqalganlari sifatida vivariy (66,7%) va geterakidozlarni (10,6%) e'tirof etadi. Gelmintlarning ekstensivligi tovuqchilik fermasi va yordamchi hamda xususiy xo'jaliklarda yuqori ekanligini (39,9 - 91,3%) hamda tovuqxonalarining to'shamalarida (100%), oxurlarda (60%) va devorlarda (20%) doimiy ravishda gelmint tuxum va lichinkalari saqlanadi. T.D Saruxanyan (1989) ma'lumot berishicha invaziyaning ekstensivligi respublikaning ayrim tovuqchilik xo'jaliklarida o'rtacha 49% ni tashkil etadi. Tadqiqotlar yakunida respublikaning barcha mintaqalari (sug'oriladigan, tog' va tog' oldi, dasht - cho'l) sharoitida joylashgan parrandachilik xo'jaliklarida askaridioz va geterakidoz invaziyalarining ekstensivligi darajasi so'nggi yillarda ortganligi qayd etildi, ya'ni sug'oriladigan mintaqalarida askaridioz -77,3% geterakidioz 25,33%, tog' va tog' oldi mintaqalarida mos ravishda - 56,5% va 26,5% haqida dasht –cho'l mintaqalari tovuqchiligida 33,7 va 11,9% ekstensivlikka ega. Invaziyaning mavsumiy dinamikasini o'rganishga bag'ishlab o'tkazilgan tadqiqotlarimiz boshqa izlanuvchilarning ilmiy xulosalarini tasdiqladi (T.D.Saruxanyan 1937) ya'ni askaridioz va geterakidoz gelmintozlarining ekstensivlik va intensivlik darajalari respublikamiz parrandachilik xo'jaliklarida bahor va kuz faslida ortadi (63,6 va 15,8% hamda 78,7 va 23,8%). Yoz hamda qish faslida yuqoridagilarga nisbatan birmuncha kam tarqalish darasiga ega (mos ravishda 61-27, 89 % va 56,23-21,59 %). Shuningdek, tadqiqot mobaynida a.galli va gallinarum ning tarqalishida parranda yoshining roli ham o'rganilib xo'jalikda 1 - 60 kunlikkacha bo'lgan jo'jalar invazion tuxumlari bilan zararlansalarda biroq ular organizmida gelmintlar jinsiy voyaga ulgurmasligi

aniqlandi. Invaziyaning eng yuqori ekstensiv davrlari 2-6 hamda 7-10 oy davomida parrandalar orasida uchrashi qayd etildi, askaridiozlar invaziyasi mos ravishda 61 - 44 - 71 – 80 % geterakidoz esa 12 % uchragan. Piperazin dixlorgidratning ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan yana bir tajriba M V Remish K.S.Krishnaiahar (1986) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib izlanuvchilar o'z taqdiqoqlarida piperazin dixlorgidratning 64, 100, 200 mg/kg lik miqdorlarini tovuqlarga suv bilan berishgan va quyidagi natijalarga erishgan: ekstensiv askaridiozga mos ravishda 83,04 va 100 % ni namoyon etgan. Bammint esa 100 mg/kg miqdorda 1 marta qo'llanilganda tovuq organizmini askaridalaridan butun tozalaydi. Tovuqlarning tuxum berish darajasi keskin o'zgarmagan. M. V.Ryemesh, K.S.Krishnaiah, V.S.Reo lar (1988) askaridiyning invazion tuxumlari bilan (500 nusxadan zararlangan Leggorn zotli parrandalarga invaziyalashdan 1 kun oldin va keyinchalik 6 hafta davomida vodorod xlorid siprogepadin moddalardan kunaro 4 mg/kg dozada og'iz orqali yuborilganda, mazkur muolaja parrandalarning o'sish – semirish va sarfiga sezilarli tasir etmaydi. G'.Rocitte (1988) broyler va tuxumdor tovuqlarning gelmintlariga kurashni tashkil etishda parrandalarni zamonaviy texnologiya sharoitda asrashni tavsiya etib samarali antigelmint sifatida beneimidizolni qo'llash taklif qiladi. Co'nggi yillarda respublikamiz parrandachiligida tovuq gelmintozlarini o'rganishga bag'ishlab o'tkazilgan qator tadqiqotlar A.O.Oripov va T.D.Saruxanyanlar (1989) tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, izlanuvchilar o'z tekshiruvlarida asosiy e'tiborni samarali antibiotik yaratishga bag'ishladi va ma'lum darajada bu muammoni hal etadilar. Mualliflar tajribalari davomida asetamizol dorilari samarali antgelmintik sifatida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazdilar. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha asetamizol 300 mg/kg miqdorda qo'llanilganda askaridiylarga nisbatan 89,6- 100 %, geterakislarga nisbat esa 100 % ekstensiv samaradorlikka ega ekanligini e'tirof etganlar. Shuningdek, uzgen dorisi ham 300 mg/kg miqdorda 2 marotaba qo'llanilganda gelmintozlarni davolashda 100-96,4 % samara berishi qayd etiladi. Mazkur preparat haqida batafsil fikr yuritishni lozim ko'rdik. A.Ulanov (1992) askaridioz va geterakidoz

(0,25 g/kg) hamda fenotiazin (0,5 g/kg) dorilarning aralashmasini yemga qo'shib 2 kun davomida ketma-ket ertalab nahorda qo'llashni tavsiya etadi va mazkur muolajani har 50- 60 kun takrorlab turish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Davlatov. R.B (1993) ning, Imonov N. ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalarida joylashgan tovuqchilik xo'jaliklarida askaridioning ekstens invazyalanish darajasi 71,3 % ni, geterasidioning 25,33% ni tashkil etsa tog' va tog' oldi mintaqalarida mos ravishda 58,9 va 26,56 % ni hamda dasht –cho'l mintaqalari 53,68 va 11,96 % tarqalishiga ega bo'ldi. Askaridion va geterakidion gelmintozlarining ekstensivlik darajasi respublikamiz parradanchalik xo'jaliklarida bahor va kuz fasllarida yuqori nuqtaga ko'tariladi (63,82 va 15,5% hamda 78,73 va 23,83%) yoz hamda qish mavsumlarida birmuncha pasayib, mos ravishda 61 va 27,7 % hamda 50,23 va 21,59 % ni tashkil etadi.

F.Davletmendov va D.Azimovning (1973)ta'kidlashicha, askaridion tuxumlarining rivojlanishi muhit harorati bilan uzviy bog'liq bo'lib, respublikamiz sharoitida 5-6- kundan 25-26 kungacha davom etishi mumkin. Oktyabr va mart oylarida lichinkalar tirik saqlansada, lekin rivojlanmaydilar. Askaridionlar xo'jayin organizmi ichaklari bo'shliqlariga zararlashning 18 – kuni chiqib boshlaydilar. Ularning parazitlik davri esa 8-14 oygacha cho'zilishi mumkin.

Tovuqning lyuberkyun bezlarining ichida lichinkalar 20 kun davomida rivojlanib, ingichka ichakka o'tgach, jinsiy voyaga yetadi. Buning uchun 35-38 kun vaqt kerak bo'ladi.

Gelmintlarning biologiyasi va ekologiyasimuammaolarini chuqur o'rgangan olim P.A.Volchinkaning (1968) fikricha, barcha gelmintlarning rivojlanishida iqlim sharoitining harorat , namlik, qurish va quyosh nurlarining doimiy ta'siri mavjud.

Askaridion lichinkalari organizmga tushgach 3-8- kunlari ichak shilliq qavatining epiteliy qavatlarida bo'lishi haqidagi ma'lumotni Nikulesku Al. Donkiu Ovanso (1969) bayon qilgan.

P.A.Velichkin va Ye.V.Merqulovlarning (1970) askaridiy tuxumlarining hayotchanligini qisqartirish uchun tovuqxona va yayrash maydonlarining polini qattiq jismlardan qilib, ilova boricha namlikni kamaytirishni maslahat berganlar.

Askaridiaz tuxumlarining anabioz davrida tashqi muhitning salbiy omillariga nisbatan ortishi haqidagi ma'lumot V.Vinokurov (1982) tomonidan bayon etilgan.

J.A.Agapov va A.K.Karliyevlar (1983) Ashxobodning naslchilik xo'jaliklarida o'tkazgan tadqiqotlarida shuni e'tirof etadilarki, askaridiy tuxumlari yilning dekabr- mart oylarida anabioz holatida bo'lib, may oyidan boshlab avj olib rivojlanadi. Tashqi muhitda rivojlani 10-13 kungacha davom etadi. Yoz faslida esa bu jarayon 6-7 kungacha qisqaradi. Tovuxonalarda bu muddat 6-15-21 kun atrofida bo'lib, yil fasllariga bog'liq bo'ladi.

V.Vinokurov (1986) o'z tajribasida xar xil turdagi askaridatlarning namlikning va haroratning yetishmovchiligiga chidamlilik darajasi turlicha bo'lishini e'tirof etadi.

Askaridiy lichinkalari ichak shilliq pardalarini teshib ichak surg'ichlaini qitiqlab, liberkyun bezlarini jaroxatlaydi. Natijada ichak devorlariga qon quyiladi yallig'lanadi patogen mikroba va viruslar uchun yul ochiladi. Voyaga yetgan askaridylarning kupligidan ichak tiqilib devori yorilib ketishi mumkin.

Askaridiylar toksik modda ajratib tovuq organizmi surunkali zaxarlaydi. Natijada jujalarning usishi va rivojlanishi sekinlashadi, tovuqlar kam tuxum qiladi. Tovux askaridiy tuxumini yutgandan keyin lichinkalari ichak bezlariga tushgan zaxoti organizmda sezilarli uzgarish bulmaydi. Lichinkalar usishi bilan ichak devorlarini jaroxatlab shilliq pardani yalig'lantiradi. Natijada lichinkalar kp tupalangan yerda birikuvchi to'qima o'sib bu to'qima parazitlarning qitiqlab jaroxatlangan joy petrofiksyalanadi. Ichak parenximatoz organlarda ayniqsa jigarda qon turg'unligi rivojlanadi.

Tadqiqotlarimiz 2-6 hamda 7-10 oylik parrandalar orasida invazyalanish darajasi yuqori bo'lib askaridiaz bilan kasallanish mos ravishda 61,44-71,20 % da geterakidoz invaziya esa 21-20,53% da qayd etildi. Biroq 14 oylik va undan

katta bulgan tovuqlar organizmida gelmintlar nihoyatda kam uchradi va ularda kassallik klinik namoyon bo'lmagan, balki invaziyaning tashuvchi, tarqatuvchilari bo'lib xizmat qilish aniqlandi. Respublikamizning tuxum yo'nalishidagi va tovuqlari almashinmaydigan to'shamalarda (yerda) asraluvchi barcha yirik sanoat parranchilik fabrikalarida askaridiaz barcha yirik sanoat va geterakidiaz invaziyalari doimiy ravishda yuqori ekstensivlikda uchraydi. Katalarda asraluvchi parrandalar orasida esa invaziyaning tarqalishi nihoyatda cheklanganligi aniqlandi. Issiq iqlim sharoitida Askaridia galli ning invaziya tuxumlari xujayni organizmga tushgach bahor faslida 30 yozda 23 kuzda-35 va qishda 39-40 kunda jinsiy voyaga yetgan gelmintlarga aylanib tuxum ajrata boshlash tajribada isbotlangan. Issiqlik generatori (TG-2,5) ning 80-85 gradus S li harorati va 60-80 minutli ekspozitsiyasida A.galli ning tuxum lichinkalari hayotchanligini saqlab qolmasdan 100% nobud bo'lishi tajribada o'rganilgan. Eksperimental askaridiazda 4 p-4 va 4 p-5 dorisi eng past 30,5 ekstens va 42,4% intens samara bergan bo'lsa 4p -4 moddasi esa umuman antgelmintik tasir namoyon qolmadi. B-2 dorisi qator tajribalarida 300 mg –kg dozada sinalganda 80-90% ekstens va 87,8 -93,7 % intens samara berishi aniqlandi. 20 % li tetramizol granulyati 200 mg/kg tirik vazniga miqdorda qo'llanilganda tovuq askaridiylariga qarshi poroshok va granula holida 100% ekstens va samara bergan. Asetamizol antgemintigi tovuq askaridiaziga qarshi poroshok holida 300 mg/kg dozada qo'llanilganda 96% ekstens va 98,12 % ega bo'ldi. Eksperimental askaridiazda piavetrin antgelmintigi 60 va 100 mg/kg (tirik vaznga) dozalarda sinalganda mos ravishda 90 va 100 % ekstens samaradorli va 96,4 -100 % intens samaradorlik namoyon qildi. Panakur antgelmintigi 10 mg/kg miqdorda 2 kun ketma ket qullanilganda 100 % ekstens samara berishi tajribada isbotlandi. Aralashmali panakur va piavetrin antgelmintik granulalari tovuq askaridiaziga qarshi kuchli vosita bo'lib 4 oylikkacha bo'lgan jo'jalarga 2 kg dan 4 oylikdan katta yoshli parrandalarga 3 g/kg (tirik vaznga miqdorda yemga aralashtirib ertalab nahorida 1 martadan berilsa 100% ekstens va intens samara beradi. Tovuq askaridiazining iqtisodiy zararini o'rganilganda og'ir invaziyalangan

jo'jalar 6 % gacha nobud bo'lishi parrandalar 20 % tirik vazn yo'qotishi tuxum beruvchi tovuqlarning tuxumdorligi 20-30 % ga ozayishi va mahsulot birligiga yem hamda boshqa xarajatlarning ortiqcha sarflanishi aniqlandi. Tovuq askaridioziga qarshi kurashning tavsiya etilayotgan usullari bo'yicha parrandachilik xo'jaliklarida o'tkazilgan gelmintsizlantirish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi 1 so'm xarajatga 26,7 va 109 so'm tashkil etgan bo'lsa tovuqchilik fermalarida esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 223 va 214 sumlarga to'g'ri keldi. Parrandachilik xo'jaliklarida tovuq askaridiozini gelmintsizlantirish uchun yuqori samara beruvchi panakur va piavetrin antgelmintik granularini 4 oylikkacha bo'lgan jo'jalarning har boshiga 2 g miqdorda 4 oylikdan katta yoshli parrandalarga esa 3 g/kg tirik vaznga mo'ljallab tong miqdordagi omuxta yemga aralashtirib 12 soatlik ochlik diyetasidan keyin ertalab nahorida 1 martadan, O'zbekiston Respublikasi veterenariya Bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan tavsiyanomasi asosida qo'llash taklif qilingan. Parrandachilik fabrikalari sharoitida tovuqxonalarni sanash qilishda mexanik tozalagich dezinvaziyalash maqsadida issiqlik generatori (TG-2 5) ni 30-85 gradus S haroratda va 60-80 minutli ekspezisiyada qo'llash ekologik toza va qulay vosita bo'lib yuqori samara beradi.

Tovuqlar organizmida turli gelmintlarning parazitlik qilishi oqibatida parrandalarning ko'plab chiqiti tuxum beruvchi tovuqlarning tuxumdorligini kamayishi kasallangan parrandalarning vazn yo'qotishi nasldor zotli tovuqlardan olingan tuxumlarning inkubasion sifatining yomonlashuvi maxsulot birligiga oziqa, mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishi kabi iqtisodiy zararlar xisoblab chiqilgan.

Ushbu muammolar bo'yicha ko'pchilik tadqiqotchilar shug'ullanishgan va ularning tajribalari asosida isbotlab berilgan.

W/ Reid et I Garman lar(1958) o'z tajribalarida askaridioz bilan zararlangan jo'jalar vaznining ortishi invaziyaning inetnsivligini bilan uzviy bog'liqligini o'rganishgan. Ularning ta'kidlashicha xar bir nusxadagi gelmint parranda vaznini 1,39- 0,37 grammga kamaytiradi. Ya'ni invaziyaning

intensivligi tovuqlarning tirik vazniga teskari mutanosibligi aniqlangan.

P.V.Volodiy va O.V.Teplovlar (1972) esa parrandachilik xo'jaligi sharoitida askaridiozning xo'jalik iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini hisoblab chiqishgan. Ularning ma'lumot berishicha semirtirilayotgan xo'rozchalarning o'sishi invaziya oqibatida 1-38 ga kamaygan, ya'ni 1 kg qo'shimcha vazni uchun oziqa sarfi 0,1-0,6 oziq birligiga ortgan. Shuningdek kasallangan parrandalarning 1 - navli go'sht chiqimi 11-18,5% ga kamaygan. O'rtacha olganda invaziyaning har 10% ga ko'payishi maxsulot tannarxini 3-4 so'mga qimmatlashtirgan (bu o'tgan davrda).

Askaridioz va geterakidoz bilan zararlangan tuxum beruvchi tovuqlarning tuxumdorligi esa 15-20% ga kamaygan (S.Bonduryansskiy 1976). Shunisi harakterliki kasal tovuqlar tuxumining vazni sog'lomlarinikiga nisbatan o'rtacha 2,6 g gachayengil bo'ladi.

Tovuq gelmintozlarining iqtisodiy zarari bo'yicha shug'ullangan yana bir tadqiqotchi S.I.Mamirjonov (1980) bo'lib uning ma'lumot berishicha, aralash spontan invaziyaga nisbatan "sof" holdagi askaridioz invaziyasi parranda mahsuldorligiga ko'proq zarar yetkazadi. Ya'ni mazkur xo'jalikaskaridioz oqibatida parranda boshiga o'rtacha 38 tiyindan (1980 yilgi baho buyicha) kam foyda ko'radi.

Shuningdek, S.I.Mamirjonov, A.I.Korchagin va M.A.Vorobyeva lar (1981) hamkorlikda o'tkazgan tajribalarida askaridioz bilan zararlangan jo'jalarni 21 kun davomida gusht uchun boqilib ularning har bir boshi hisobiga 92 tiyindan (1980 yil solishtirma bahosi bilan) iqtisodiy zarar ko'rilganligini aniqlaydi.

F.Rochett (1988) ning tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatadiki, tovuq askaridiozi va geterakidozi oqibatida jo'jalar keskin o'sishdan qoladi tovuqlarning mahsuldorligi esa 46% gacha kamayadi.

Eksperimental sharoitda tovuqlarni aralash gelmintozlar bilan invaziyalaganda ularning tuxumdorligi 20-50% gacha pasaygan.

R.B.Davlatov (1990, 1992) o'z tadqiqotlarimizda tovuq gelmintozlarini

uning barcha turdagi mahsuldorligiga keskin ta'sir etishini kuzatgan.

Ayniqsa, gelmintozlar oqibatida og'ir kasallangan jo'jalarning o'limi (6% gacha) bilan bir qatorda ularning semirishi 20% tovuqlarning tuxumdorligi esa 20-30% kamayganligini guvohi bo'ldik. Shuningdek invaziya oqibatida nasldor tuxumlarning kompleks inkubasion sifatining yomonlashuvi mahsulot birligiga oziqa va boshqa ishlab chiqarish harakterlarining ortishi 1-navli go'sht miqdorining kamayishi va boshqa turdagi iqtisodiy zararlar qayd etildi.

Davlatov R.B. (1990,1993) ma'lumoticha, tadqiqotlarning natijalariga asoslanib tovuqlarni gelmintsizlantirishning yuqorida tavsiya etilgan usullarini va sxemalarini qo'llab antgelmintik granulalardan foydalangan holda 2 ta yirik sanoat tipidagi parrandachilik fabrikasida hamda 2 ta tovuqchilik fabrikasida gelmintsizlantirish tadbirlarini o'tkazgan va amalga oshirilgan muolajaning iqtisodiy samaradorligini professor A.K.Ismoilov maslahatchiligida hisoblab chiqishib, Buning uchun "Veterinariya xizmatini tashkil etish va iqtisodiyoti" darsligidan (A.D.Tret'yakov 1987) hamda "Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodiyoti" fani bo'yicha tayyorlangan uslubiy ko'rsatmadan foydalanilib, (T.A.Abduraxmonov, A.N.Nurullayev 1990) quyidagi formulalarga asoslanadi.

Ushbu mintaqada tovuq gelmintlarining nisbatan kam tarqalganligini ilmiy asosda shunday izohlash mumkinki chunki dasht va cho'l tarafida issiq mavsumlarda quyosh nurlarining doimiy va kuchli ta'siri haqida namligining yetishmovchiligi kabi nomaqbul ob-havo sharoiti gel'mintlarning rivojlanish imkoniyatini cheklaydi.

O'tkazilgan tekshiruvlarga asoslanib shuni alohida ta'kidlamogchimizki, Buxoro va Xorazm viloyatlarining ko'pchilik tovuqchilik xo'jaliklarida *N.gallinarum* gelminti boshqa mintaqalardagiga qaraganda nisbatan kam uchrashini hattoki, ayrim xo'jaliklarda umuman uchramasligining guvohi bo'lganlar.

Bizning taxminimizcha, mazkur viloyatlar tuprog'ining tarkibida tuz moddasining nisbatan ko'pligi, geterakslarining tashqi muhitda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib shuni xulosa qilamizki, tovuq askaridioza eng ko'p tarqalgan xo'jaliklar sug'oriladigan mintaqa sharoitida (77,31 – 100%) bo'lib, invaziyaning enstensivligi jihatidan ikkinchi urinda tog' va tog' oldi mintaqalari xo'jaliklari turadi(58 , 59%). Nisbatan past darajada invaziyalangan tovuqchilik fermalar va fabrikalar esa dasht hamda cho'l mintaqalari sharoitida (53, 68%) qayd etildi.

1.3. Tovuq askaridiozini davolash va oldini olishning uslub va vositalari

Tovuqlar organizmida gelmintlarining har xil intensivlik va ekstensivlik darajasida parazitlik qilishi natijasida parrandalarning ko'plab nobud bo'lishi, tuxum beruvchi tovuqlarning tuxumdorligi kamayishi, kasallangan parrandalarning vazn yo'qotishi, nasldor zotli tovuqlardan olingan tuxumlarning inkubasion sifatining yomonlashuvi, mahsulot birligiga ozuqa, mehnat sarflari va ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishi kabi iqtisodiy zararlar qayd etiladi.

Ye.V.Merqulov (1973) o'z tajribalariga asoslanib, shuni ta'kidlaydiki, sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishda askaridiy tuxumlarining 3 yilgacha tashqi muhitda saqlanib qolishini hisobga olish lozim.

Mebendazol dorisining aktiv antigelmintik ta'siri (intens samaradorlik – 85,7 -100%) S.Matta (1980) geletan, baymaten, vopella kabi dorilarni jo'ja askaridiozini davolashda samarali qo'llaganlar. N.V.Demidov, I.G.Solonenko (1981) va S.N.Sxirtladozlar (1981) benasil hamda uning birikmalarini askaridiylarga nisbatan yaxshi ta'sir etishini bayon qiladilar. Jumladan 4-xlorli benasil, benasil gidroxlorid va fenosizollar 0,3 – 0,75 g/kg dozada tovuq askaridiozlarini davolashda 100% samara berishligi e'tirof etiladi.

Benasil va BMK yakka holda va guruh usulida askaridioz bilan kasallangan tovuqlarga berilganda yetuk askaridiylarga nisbatan yuqori natijalar ko'rsatadi (S.V.Borozkina, 1981).

Tadqiqotchi o'z tajribalarini davom ettirib benasil va BMK dorilarini askaridiyning 10 kunlik lichinkalariga qarshi 0,2 g/kg qo'llab 100% ijobiy

natijaga erishgan.

M.S.Rustamova va N.N.Demidovlar (1981) ishlab chiqarish sharoitida fenosizol va benosil gidrokslorid dorilarini askaridioz va geterakidozni davolashda qo'llab ko'radilar fenasizol 0,2 g-kg miqdorda askaridiylarga qarshi 90% samara bersa benosil gidrokslorid esa 0,2 g-kg dozada har ikkala gel'mintlarga nisbatan 95-100% ajoyib ta'sir ko'rsatgan.

A.V.Malaxov (1981) tovuq gel'mintlariga qarshi fenotiazin va piperazin dorilarining samaradorligini sinovdan o'tkazib shuni takidlaydiki sungi paytda mazkur dorilarga nisbatan parazitlarning chidamdorligi ortgan. Shuning uchun piperazin adipanat dorisini 0,25 g-bosh dozada har kuni 2 martadan 2 kun uzluksiz qullashni tavsiya etadi.

Benasil dozasini 0,1-0,2 g-bosh miqdorda sog'lom va kasallangan tovuqlarga qo'llab ko'rilganda uning parranda mahsuldorligiga salbiy ta'sir etmasligi tajribada isbotlangan (S.V.Borozkina, 1981).

M.F.Fedotov (1982) tovuqlarning askaridioz va geterakidozlariga qarshi kurashda gigrovotnli davolovchi hamda oldini oluvchi omuxta aralashmalar tayyorlab doimiy ravishda qo'llashni taklif etadi. Muallifning takidlashicha bu usul dori sarfini kamaytirib uning ta'sirini oshiradi.

A.V.Malaxovning (1983) ishlab chiqarish sharoitida o'tkazgan tajribasida askaridiylarga qarshi qo'lanilgan benosil (0,2 g-kg 2 martadan 2 kun) BMK (0,3 g-kg 1-kunda 2 marta) va benosil (0,2 g-kg 2 marta) dorilarning 100% ijobiy natija berishini isbotlaydi.

P.A.Velichkin, V.F.Goluvov, V.V.Solovyanov va N.A.Krilovlar, 1983 to'la parrandachilik fabrikalari sharoitida askaridioz va geterokidozni davolashda nilverm hamda panakur dorilarini quruq yemga aralashtirib va eritma holida foydalanganlarida yuqori ko'rsatkichlarga erishishgan.

Dorili-yem aralashmasini qo'llab o'tkazilgan tajribaning natijasi shuni ko'rsatadiki uning davolovchi ta'siri qariyb antgelmintiklarga teng bo'ladi. (A.I.Korchagin, A.M.Muzikovskiy, S.I.Mamirjonov, 1983).

P.A.Volichkin va V.F.Golubkovlar (1983) lopatol dorisining 100-75 mg-

kg tirik vaznga mo'ljallangan dozasi askaridiozni davolashda 100% samara berishini takidlaydilar. Biroq tovuqlar dorili aralashmani yomon yeyish – ishtaxasizlanishi qayd etilgan.

M.V.Romesh , K.S.Krishnaiax yet V.S.Reo lar (1986) xlorvodorodli siprogentadinning 0,5 va 1 mg-ml nisbatlardagi miqdorlarini askaridiy tuxumi lichinkasi va yetuk gelmintlariga ta'sir etish mexanizmini o'rganadilar.

A.Vervinski, R.Andrevskiy va T.Xoltren (1986) lar askaridioz geterakidoz va kapillyariozlarni davolashda fenbendazolning turli dozalarini laborator tajribalarda sinab ko'radilar. Ularning ta'kidlashicha fenbendazol askaridiy va geterakislarga nisbatan 100% kapillyariylarga nisbatan 95% ta'sirga ega.

A.Romisz (1987) o'z tajribalarida spontan zararlangan tuxum beruvchi tovuqlarni nepatodozlardan davolashda fenbendazolni qo'llagan va dorini tovuq tuxumdorligiga ta'sirini o'rgangan.

Muallifning ta'kidlashicha fenbendazolni 8 mg-kg miqdorda kun davomida qullab 98,7% samaradorlikka erishgan va gel'mintsizlantirishdan keyin 14 kun o'tgach tovuqlarning tuxumdorligi 85% ni tashkil etgan.

A. Fagasinski yet Zastosovlar (1987) tuxumdor tovuqlarning askaridiozini davolashda 10 mg-kg miqdorda pirantal tartrat dorisini qo'llab yaxshi davolovchi ko'rsatkichlarga erishgan.

A.Romisz (1987) ning izlanishlari askaridiozni davolashda qo'lanilladigan antigel'mintiklarni (panakur, banmint) tuxumdor tovuqlarning maxsuldorligiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi.

R.B.Davlatov (1992 y) o'z tajribalarida shuni qayd etadiki panakur 3 kun davomida 8 mg-kg miqdorda kasal tovuqlarga berilganda askaridiy va geterakislarga nisbatan 100% ta'sirga ega.

F.Davletmendov va D.Azimovlar (1980) tovuqchilik xo'jaliklarini gelmintozlardan sog'lomlashtirishda veterinariya-sanitariya tadbirlariga rioya qilish bilan bir qatorda, gelmintsizlantirish tadbirlarini qat'iy reja asosida o'tkazishni maslahat beradilar.

A.Po'latov (1981) tovuqxona va yayrash maydonchalarini xar yili 2 marta bahor va kuzda alangali gaz apparatidan foydalanib dezinvaziya qilishni tavsiya etganlar.

N.Xegay (1990) tovuqxonalarni dezinvaziyalashda parrandalar chiqarilgach 3% li o'yuvchi natriy qo'llashni tavsiya berganlar. Oxur, sug'orish idishlarini va katakchalarni 5-6 %li ishqor bilan zararsizlantirish lozimligini aytganlar. Keyin esa bino, oxur va sug'orish idishlarini issiq suv bilan yuvilib quritilgach xlorli ohak mbilan ishlov beriladi.

A.Ulonovning (1992) ta'kidlashicha, xususiy va yordamchi xo'jalaiklar sharoitida tovuqlarni xar yili kamida bir marotaba parrandalardan bo'shatib, to'la sanasiya o'tkazilsa, ko'pgina invazion va yuqumli kasalliklarning oldi olinadi. Ya'ni, bo'shatilgan binolar mexanik tozalangach, barcha jihozlar issiq suv bilan yuviladi. Keyin esa, o'yuvchi natriyning 1,5-2 % li issiq eritmasi bilan dezinfeksiya o'tkazilib, bino ta'mirlangach 10-20% li kuydirilgan ohak eritmasi bilan ohaklanadi.shuningdek, jo'jalarni gelmintozlardan saqlash maqsadida alohida asrash va ob-havo sharoitiga moslab har 10-20 kunda yayrash maydonchalarini almashlab turish muhim ahamiyat kasb etadi.

F.Davletmendov va D.Azimovning (1973)ta'kidlashicha, askaridiy tuxumlarining rivojlanishi muhit harorati bilan uzviy bog'liq bo'lib, respublikamiz sharoitida 5-6- kundan 25-26 kungcha davom etishi mumkin. Oktyabr va mart oylarida lichinkalar tirik saqlansada, lekin rivojlanmaydilar. Sakaridiylar xo'jayin organizmi ichaklari bo'shliqlariga zararlashning 18 – kuni chiqa boshlaydilar. Ularning parazitlik davri esa 8-14 oygacha cho'zilishi mumkin.

Tovuqning lyuberkyun bezlarining ichida lichinkalar 20 kun davomida rivojlanib, ingichka ichakka o'tgach, jinsiy voyaga yetadi. Buning uchun 35-38 kun vaqt kerak bo'ladi.

Gelmintlarning biologiyasi va ekologiyasimuammaolarini chuqur o'rgangan olim P.A.Volchinkaning (1969) fikricha, barcha gelmintlarning rivojlanishida iqlim sharoitining harorat , namlik, qurish va quyosh nurlarining

doimiy ta'siri mavjud.

Askarnidiy lichinkalari organizmga tushgach 3-8- kunlari ichak shilliq qavatining epiteliy qavatlarida bo'lishi haqidagi ma'lumotni Nikulesku Al. Donkiu Ovanso (1969) bayon qilgan.

Askaridiy tuxumlarining hayotchanligini qisqartirish uchun tovuqxona va yayrash maydonlarining polini qattiq jismlardan qilib, ilova boricha namlikni kamaytirishni maslahat berganlar.

Askaridiaz tuxumlarining anabioz davrida tashqi muhitning salbiy omillariga nisbatan ortishi haqidagi ma'lumot V.Vinokurov (1982) tomonidan bayon etilgan.

Ashxabodning naslchilik xo'jaliklarida o'tkazgan tadqiqotlarida shuni e'tirof etadilarki, askaridiy tuxumlari yilning dekabr- mart oylarida anabioz holatida bo'lib, may oyidan boshlab avj olib rivojlanadi. Tashqi muhitda rivojlani 10-13 kungacha davom etadi. Yoz faslida esa bu jarayon 6-7 kungacha qisqaradi. Tovuxonalarda bu muddat 6-15-21 kun atrofida bo'lib, yil fasllariga bog'liq bo'ladi.

Xar xil turdagi askaridalar namlikning va haroratning yetishmovchiligiga chidamlilik darajasi turlicha bo'lishini e'tirof etadi.

Askaridiy lichinkalari ichak shilliq pardalarini teshib ichak surg'ichlaini qitiqlab, liberkyun bezlarini jaroxatlaydi. Natijada ichak devorlariga qon quyiladi yallig'lanadi patogen mikroba va viruslar uchun yul ochiladi. Voyaga yetgan askaridlarning kupligidan ichak tiqilib devori yorilib ketishi mumkin.

Askaridiylar toksik modda ajratib tovuq organizmi surunkali zaxarlaydi. Natijada jujalarning usishi va rivojlanishi sekinlashadi, tovuqlar kam tuxum qiladi. Tovux askaridiy tuxumini yutgandan keyin lichinkalari ichak bezlariga tushgan zaxoti organizmda sezilarli uzgarish bulmaydi. Lichinkalar usishi bilan ichak devorlarini jaroxatlab shilliq pardani yalig'lantiradi. Natijada lichinkalar kp tupalangan yerda birikuvchi to'qima o'sib bu to'qima parazitlarning qitiqlab jaroxatlangan joy petrofiksyalanadi. Ichak parenximatoz organlarda ayniqsa jigarda qon turg'unligi rivojlanadi.

E.H.Ergashev va I.V.Sissevlar (1973) tovuqxonalarni dezinvaziya qilishda propan butan bilan ishlovchi alangali gaz apparatidan foydalanganlar. Keyinchalik esa E.H.Ergashev, R.Norxo'jayev va Ye.Kasparovlar (1979) gaz bilan ishlovchi apparatning maqbul variantlarini yaratib, mualliflik guvohnomasini olishga muvaffaq bo'lganlar (№688773).

B.Pugayning (1986) ta'kidlashicha, ona tovuqlar guruhini tashkil etishdan avval ularni proimaginalli gelmitsizlantirib, invaziya zanjirini uzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashqi muhit va tovuqxonalaridagi gelmint elementlarini dezinvaziya qilishda ximiyaviy usullarning yetishmasligi sababli tadqiqotchilar zararsizlantirishning fizikaviy usullarini tadbiq etadilar. Jumladan B.K.Nartens (1960), G.Plyushevayalar (1970) o'z tajribalarida turli fizik vositalarni sinab ko'radilar.

Tovuq askaridionini gelmitsizlantirish maqsadida tetramizol (20%)-200 mg/kg t.v.ga, asetamizol-300 mg/kg t.v.ga, piavetrin (piperazin)-100-200 mg/kg t.v.ga, panakur-10 mg/kg t.v.ga (2 kun ketma-ket), panakur granulalari (yem bilan) jo'jalarga-2g 1 bosh, tovuqlarga 3 g/bosh miqdorlarda 12 soatlik ochlik diyetasidan keyin ertalab nahorda omuxta yem (o'rtacha 10 g/boshga) bilan guruhli usulda bir martadan berilganda samarali ta'sir etadi (Davlatov R.B.).

Shuningdek, keyingi avlod antigelmintiklaridan alben tabletkasi-36 kg t.v. ga 1 dona, maydalangan holda yem bilan 2 kun ketma-ket, albazen (2,5%) suspenziyasi-200 ml/100 litr suvga aralashtirilib qo'llanilishi mumkin.

T.Abdurahmonov, T.To'laganovlarning (2004) ma'muotlaricha, Gelmintozlar oqibatida tovuqlar umumiy mahsuldorligini 46 foizgacha yo'qotishi mumkin.

O'tkazilgan tajribalardan ma'lumki, askaridiy gelminti lichinkalarining parranda ichagi lyuberkyun bezlari va shilliq osti to'qimalarida rivojlanib, uning bo'shlig'iga chiqish muddatlari bahor – yoz mavsumida 19-21, kuz – qish mavsumida esa 21-24 kunga to'g'ri kelishi aniqlangan. Ushbu ilmiy tahlillar asosida “bir yarim” gelmitsizlantirish usuli sinovdan o'tkazildi. Buning uchun

birlamchi gelmitsizlantirish muolajasi to'la amalga oshirilgach, oradan 27 kun o'tkazilib, mazkur jo'jalarga panakur antgemintigi berilgan. Tajriba yakunida esa ushbu guruh jo'jalari noto'liq gelmintologik tekshiruvdan o'tkazilganda ular organizmida gelmint lar qayta uchramagan. Zararlangan qiyosiy guruhdagi parrandalarning ichagida esa o'rtacha 246-312 nusxadan askaridiylar topilgan.

Xulosa qilish mumkinki, askaridiylarning biologiyasini inobatga olib, dastlab to'la gelmitsizlantirish o'tkazilgach, ikkinchi marta gelmintlarning imagolik bosqichi 30-35 kunga yetkazmasdan davolovchi dori vositalari berilsa, tovuqlarni askaridiozdan sog'lomlashtirish tadbiri samarali bo'ladi va unga ketadigan harajatlar keskin kamayadi. Qoraqalpog'iston respublikasining To'rtko'l, Beruniy, Amudaryo, Ellikqala tumanlarining xo'jaliklarida va shaxsiy xonadonlaridagi tovuqlarga yuqorida aytilayotgan usullarni qo'llab qo'llab askaridiozdan sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazib yuqori samara olganlar. Natijalarga ko'ra o'limdan saqlanib qolingan parrandalar soni umumiy boshga nisbatan 6% ni tashkil etgan. Tuxum olish bosh soniga nisbatan 30-52% ga to'g'ri kelgan.

R.Davlatov, X.Salimovlar (2008y), barcha tovuqchilik fermalari va parrandachilik xo'jaliklari "berk, yopiq" korxona hisoblanadi. Shu bois, ferma atrofi devorlar bilan o'rab olinishi, unda avtoullov kirib-chiqishi uchun dezinfekcion to'siqli darvoza hamda piyodalar uchun alohida sanitar to'siqli eshik bo'lishi shart. Tovuqxona atroflarri albatta ko'kalamzorlashtirilgan bo'lishi kerak. Aksariyat moslashtirilgan binolarda veterinariya – sanitariya nazorati yo'qligi sababli ularda asarlayotgan parrandalar epizootik holatni murakkablashtirishi hamda yangi jo'jalarning ko'plab nobud bo'lishi, o'sishdan qolishi, tovuqlarda tuxum mahsuldorligining pasayishi, dori-darmon va ozuqa sarf xarajatlari ko'payishi oqibatida katta iqtisodiy zarar ko'rilmoqda ana shu jihatlar e'tiborga olinib, parrandachilikda ilg'or texnologiyalarni qo'llash joiz. Tovuqxonalarni qurish va jihozlash, sug'orish va oziqlantirish tizimini me'yorda ishlashini ta'minlash hamda binolarda mo'tadil mikroiklim yaratish lozim. Zooveterinariya talablari asosida yaratilgan sharoitlarda asrash va parvarishlash

tovuqlar orasida epizootik vaziyat uchun zamin hisoblanadi.

Bizga adabiyot ma'lumotlaridan ma'lumki, askaridiyozga qarshi tovuqlarni gelmintsizlantirishda piperazin tuzlari natriy kremneftorid yoki piperazin aralashmasi uglerod tetroxlorid, fenotiazin ishlatiladi.

Piperazin tuzlari xar bir tovuqda 1,0 g dan, 2-3 oylik jo'jalarga esa 0,3-0,5 g dan oziqaga aralashtirib, ikki kun davomida beriladi. Piperazin individual ravishda yoki guruh usulida ertalabki birinchi oziq bilan xam beriladi. Mo'ljallangan dorini tovuq to'liq eyishishi uchun kunlik oziq miqdori 25% kamaytiriladi. 5g piperazin tuzini 1 litr issiq suvda eritilib chiqarish mumkin. Eritmani ichirishda metaldan tayyorlangan idishga bir kunlik qilib qo'yiladi.

Natriy kremneftorid {GOST 87-57} oliy sifatli piperazin tuzlarining aralashmasi eng yaxshi antigelmintiklardan xisoblanadi. Aralashma tovuqlarga oziq bilan berilganda faqat askaridiydagina emas balki geterakidozni ham 100% haydaydi. Aralashma xar bir tovuqqa 0,06g natriy kremneftorid va 0,25 g piperazin sulfat tayyorlanib kuniga ikki marta –ertalab va kechqurun ozuqaga aralashtirib namlab berish maqsadga muvofiqdir. Ko'rsatilgan aralashma bilan berib oradan 1-2 soat o'tgandan keyin askaridiy ajralib chiqa boshlaydi. Ikkinchi dozasi berilgandan so'ng 100% askaridiy chiqib ketadi.

Bu usul M.G.Jdanov J.Shopulatovlar (1963) tomonidan o'rganilib O'zbekistonning ko'pchilik parandachilik xo'jaliklarida tekshirilgan hamda parrandachilik xo'jaliklarida qo'llash ta'klif etilgan.

Uglerod tetroxlorid 2-10 oylik jo'jalarga 1 ml katta tovuqlarga 2-5 ml beriladi. Preparat og'izdan ingichka rezinka naycha orqali jig'ildonga yuboriladi. Buning uchun rezinka naycha orqali jig'ildonga yuboriladi, ikkinchi uchiga uglerod tetroxlorid quyilgan ignasiz shpris ulanadi. Uglerod tetroxloridni ignali shpiris bilan to'g'ri jig'ildonga yuborish qulay.

Askaridiozga qarshi kaliy arsenat ham ishlatiladi. U tabletka shaklida bo'lib, 3-4 oylik jo'jalarga 0,07 grammdan voyaga yetganlariga esa 0,2 g dan beriladi. Davolash uchun fenotiazin dori vositasini ishlatish mumkin. Yoz faslida haftasiga bir marta 25 g fenotiazin 10 kg yemga aralashtirib beriladi.

Aslida noyabr oyidan boshlab tovuqlarni gelmintsizlantirish kerak. Tovuqxonalarni muntazam ravishda tozalab turish, tovuqxonadagi tezaklarni biotermik usulda zararsizlantirish ham muhim tadbirlardan hisoblanadi. Tovuqlarni yayratish maydonchalari tashlandiqlardan tozalanib, haydalib, so'ng ularga xlorli ohak sepilishi kerak bo'ladi. Dorilangan joylarda tovuqlarni 7-10 kungacha saqlash boqish mumkin emas. Yozda parrandalarni yayratish maydonchalari har 20-30 kunda almashtirilishi lozim. Hamma holatlarda ham jo'jalar tovuqlardan ajratilib boqilishi zarur.

Kasallikning oldini olish maqsadida, tovuqlarga har oyda bir marta ertalab yoki kechqurun natriy kremneftorid (0,06 g) bilan piperazin (0,25) aralashmasi berib borilsa, tovuq organizmidagi gelmintlar voyaga yetmay, rivojlanmay chiqibketadi.

Shu vaqtda tashqi muhit ham asta-sekinlik bilan askaridiozdan toza bo'la boshlaydi.

I BOB BO'YICHA XULOSA

- adabiyotlar ma'mumotlaridan ma'lumki, tovuq askaridiozi parrandalar, ayniqsa, o'suvchi jo'jalar orasida juda ko'p uchraydigan gelmintozlardan bo'lib, tovuqlarning ingichka bo'lim ichaklarida parazitlik qilib, og'ir asoratlar sodir etadi va xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Kasallik qo'zg'atuvchisi *Ascaridia galli* nematodalari hisoblanadi. Askaridioz kasalligi asosan 2 oylikdan 8-10 oylikkacha bo'lgan tovuqlar kasallikka chalinadi. Bir yoshdagi tovuqlar odatda kasalanmaydi lekin kasallik manbai bo'lishi mumkin.

- yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha zooveterinariya va zoogigiyenik tadbirlarini shuningdek parrandalarni saqlash, oziqlantirish, yoritilish, ventilyasiya va boshqa mikroiklim parametrlarini inobatga olishimiz zarur degan xulosalarga keldik.

2. XUSUSIY TADQIQOTLAR

2.1. Tadqiqotning obyekti va uslublari

Magistrlik – Ilmiy tadqiqotlar ishini 2013-2016 yillar davomida Samarqand qishloq xo'jalik instituti "Veterinariya" fakultetiga qarashli vivariya "kichik tovuqxona" sida, "Hayvonlarning yuqumli va invazion kasalliklari" kafedrasida ilmiy laboratoriyasi va O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti parranda kasalliklarini o'rganish laboratoriyasi hamkorligida hamda Sirdaryo viloyatining Guliston va Mirzaobod tumanlaridagi parrandachilik xo'jaliklarida, Samarqand QXI o'quv-tajriba xo'jaligida o'tkazildi va

Ushbu dissertasiya ishi 2013-2016 yillar davomida bajarildi.

Ilmiy tadqiqot ishlarning laboratoriya tajribalari Samarqand qishloq xo'jalik institutining "Veterinariya" fakultetiga qarashli "Hayvonlarning yuqumli va invazion kasalliklari" kafedrasining ilmiy laboratoriyasida hamda Guliston tumaniga qarashli veterinariya laboratoriyasining "Parazitologiya" bo'limida tekshirilib tashxis qo'yish ishlari 2015 yilda olib borilgan.

Guliston tumani parrandachilik xo'jaliklarining tovuqlari orasida askaridioz kasalligining tarqalish ya'ni epizootologiyasini o'rganish maqsadida turli yoshdagi parrandalar o'rtasida bo'layotgan nobudgarchilik, kasallikning klinik alomatlari, ichki organlardagi patologoanatomik tekshiruvlar natijalariga asoslanib o'rganildi.

Qo'llaniladigan yangi dori vositalari jo'jalarning eksperimental askaridiozidagi samaradorlik ko'rsatkichlari kasallikning klinik alomatlariga, ichki organlardagi patologoanatomik o'zgarishlarga, jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasiga va bir bosh jo'janing tirik vaznining o'sishiga qarab baholandi.

Umumiy kasallikga kurashish choralaridan biri antigelmintik preparatlardan foydalanish orqali, lekin bu bilan to'lig'icha kasallikdan qutilib, xo'jalikni sog'lom deb bo'lmaydi. Antigelmintiklarni bilib qo'llanganda faqat kasallikni kamaytirib o'limdan va iqtisodiy zararni kamaytirish mumkin.

2.2. Tadqiqot o'tkazilgan xo'jalik va ilmiy laboratoriya

Tadqiqotlar Sirdaryo viloyati Guliston, Mirzaobod tumanlaridagi parrandachilik xo'jaliklarida, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida ularda asralayotgan turli yo'nalishdagi tovuqlarda olib borildi.



Xo'jalikka kirishdagi davozi oldidan ko'rinishi



Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani parrandachilik xo'jligiga kirish joyi, dezobarer o'rnatilgan



Mirzaobod tumani tovuqchilik xo'jaligida baza va sexlarning ko'rinishi



Xo'jalikdagi tekshirish ishlari jarayonidan lavhalar



Laboratoriyada xo'jaliklardan keltirilgan patologik materiallar bilan ishlash jarayoni



Askaridiya lichinkalari, gelmintlarning uzunligi 12-14 sm gacha



2.3. Tovuq askaridiozining epizootologiyasi

Askaridiozlar tabiatda juda keng tarqalgan kasalliklardan bo'lib, ular parrandalardan tashqari ko'pchilik tur hayvonlarda uchraydi va katta iqtisodiy zararga olib keladi. Tovuq askaridiozi parrandalar, ayniqsa, o'suvchi jo'jalar orasida juda ko'p uchraydigan gelmintozlardan bo'lib, tovuqlarning ingichka bo'lim ichaklarida parazitlik qilib, og'ir asoratlar sodir etadi va xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Kasallik qo'zg'atuvchisi *Ascaridia galli* nematodalari hisoblanadi. Askaridioz kasalligi asosan 2 oylikdan 8-10 oylikkacha bo'lgan tovuqlar kasalikka chalinadi. Bir yoshdagi tovuqlar odatda kasalanmaydi lekin kasalik manbai bo'lishi mumkin.

Tovuqlar orasida uchraydigan gelmintoz kasalliklarni oldini olish, uning parranda yoshining qaysi oyliklarida ko'p tarqalishini o'rganish, davolash, turli xil dori vositalari va ularni almashlab qo'llash hamda kasalliklarning birga kechishini inobatga olish, kasalliklarni bartaraf etish kabi tadbirlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. 2014-2015 yillar davomidagi tadqiqot ishlarimizdan tovuq askaridiozi (epizootologiyasi) tarqalishi, uni intensivligi va ekstensivliklari kuzatilib o'rganildi.

Unga ko'ra, tadqiqotlar Sirdaryo viloyatining Guliston va Mirzaobod tumanlari hududidagi tovuqchilik fermalari, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklari hamda xonadonlardan keltirilgan patmateriallar va tezak namunalarini tekshirish usuli bilan amalga oshirildi.

Sirdaryo viloyati Guliston shahar hududidagi parrandachilik xo'jaliklarida tovuq askaridiozining tarqalishi parrandalarni asrash, oziqlantirish, 1,5 oylikdan 4 oylikkacha bo'lgan jo'jalar hamda yil mavsumining kuz va bahor fasllari sharoitiga keskin bog'liq bo'lib uning ekstensivlik va intensivlik ko'rsatkichlari turli darajalarda kuzatildi.

Natijalarga ko'ra, Sirdaryo viloyati Guliston shahar hududlarida tekshirilgan parrandachilik xo'jaliklarida tovuq askaridiozining invaziya ekstensivligi 50 % - 60 % gachani tashkil etdi, invaziya intensivligi esa o'rtacha 12 – 54,6 nusxada aniqlandi.

Suv yoki oziq bilan askaridiyning invazion tuxumini yutganda kasallik yuqadi. Gelmint tuxumining rivojlanishi uchun harorat 17^0-30^0 S darajada, nisbiy namlik esa 100% gacha bo'lishi lozim.

Tovuq yayratiladigan maydonchalarda askaridiy tuxumi (may va avgust oylarida) 15-35 kunligi rivojlanadi. Bu vaqtda qalinligi 4 sm ga yetmaydigan tezakdagi tuxum invazion davriga yemasdan xalok bo'ladi.

Sentyabrdan to aprelgacha askaridiy tuxumlari o'lmaydi va rivojlanmaydi. Lekin bu davrda lichinkasi rivojlanib yetilgan tuxumlari qish faslida halok bo'ladi.

Shunday qilib, kasallik yuqqan tovuqlar va qishdan tirik chiqqan askaridiy tuxumlari jo'jalarga askaridiaz kassaligini yuqtiradigan asosiy manba hisoblanadi.

Yoz faslida askaridiy tuxumlari 15-35 kunda rivojlanadi. Tovuq tezagidagi askaridiy tuxumlari 1-1,5 kunda quyosh nurlari ta'sirida invazion xususiyatlarini yo'qotadi va zararsizlanadi. Qishda nobud bo'lmay qolgan tuxumlar jo'jalarga kasallikni yuqtiradi. Askaridiylar tovuq organizmida 9-14 oygacha parazitlik qiladi. Invaziya iqlim va xo'jalik sharoitiga qarab ko'p yoki oz tarqaladi. Parrandachilik xo'jaliklariga invaziya ayniqsa sentyabr – oktyabr oylarida ko'p tarqaladi jo'jalarni tovuqlarga qo'shilgandan keyin invaziya yana kuchayadi. Noyabr - yanvar oylarida invaziya ayniqsa ko'p tarqalib may oyigacha bir meyorda turadi undan keyin pasaya boradi

2.3.1. Tovuq askaridiazining Sirdaryo viloyati Guliston va Mirzaobod tumanlarining xo'jaliklarida tarqalishi

Sirdaryo viloyati ayrim hududlarida tovuq askaridiazining tarqalishi (invaziya intensivligi va invaziya ekstensivlik) ko'rsatkichlari haqida.

So'nggi yillarda parrandachilik fan va texnika yutuqlaridan madad olib yuqori pog'onalariga ko'tarilib 2014 yilning yakuni bo'yicha parrandalarning bosh soni 55 mln boshdan ortdi va hozirgi vaqtda respublikamizda parrandalar

soni 60,8 mln boshdan oshgani qayd etilyapti. Parrandachilik chorvachilikning eng muhim tarmog'i sifatida bugungi kunda tovuqchilikni, undan keladigan daromadni ham salmog'i katta. Ayni paytda respublikamiz viloyatlari tumanlarida fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida, tashkilotlar qaramog'ida, yoiniki har bir xonadonda parrandachilik bilan shug'ullanayotganlarning salmog'i ortmoqda. Bu albatta yaxshi, chunki, tovuq saqlab oilani tuxum, tovuq go'shti kabi mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirib qolmasdan uni bozorga olib chiqish, bozorni parranda mahsulotlari bilan to'ldirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Parrandachilik rivojlanib kundan – kunga o'sib ko'payib bormoqda ekan shu bilan birga bu sohaning yuqori samaradorligini, rentabelligini oshirishda to'siqlar ya'ni tovuqlar orasida ayrim kasalliklar uchrashi mavjud muammolardan bo'lib saqlanib qolmoqda.

Tovuqlar orasida uchraydigan yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarni oldini olish, davolash, turli xil dori vositalari va ularni almashlab qo'llash hamda kasalliklarning birga kechishini inobatga olish, kasalliklarni bartaraf etish kabi tadbirlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. 2014-2015 yillar davomidagi tadqiqot ishlarimizdan tovuq askaridiozi (epizootologiyasi) tarqalishi, uni intensivligi va ekstensivliklari kuzatilib o'rganildi.

Tadqiqotlar Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani va Guliston shahri hududidagi tovuqchilik fermalari, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklari hamda xonadonlardan keltirilgan

patmateriallar va
tezak namunalarini
tekshirish usuli bilan
amalga oshirildi.
Tegishli
patmateriallar va
namunalar olinib,
Samarqand qishloq



xo'jalik instituti, hayvonlar kasalliklari va parazitologiya kafedrasining "Zooparazitologiya" laboratoriyasida to'liq gelmintologik yorish va Fyulleborn usullari bo'yicha ichaklar va tezak namunalari tekshirilib borildi.

Sirdaryo viloyati ham respublikamiz tovuqchiligida asosiy o'rin egallab turadi. Viloyatning ayrim tumanlarida tovuqchilik bilan shug'ullanayotgan xo'jaliklarida tovuq askariozining tarqalish holati bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Tadqiqotlarda asosan parrandalar yer sharoitida va almashinmaydigan to'shamalarda asralishi, moslashtirilgan binolarda saqlash, tashkil etilib turli yoshdagi parrandalar zoogigiyenik me'yorlar hamda veterinariya sanitariya qoidalariga to'liq rioya qilinmasligi xo'jalikda yosh va o'suvchi jo'jalar, ba'zan tovuqlar orasida turli kasalliklar uchrashi epizootik holatni murakkablashishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotlar Sirdaryo viloyatining tovuqchilik bilan shug'ullanayotgan ayrim fermer xo'jaliklari faoliyati sharoitida o'rganildi. Ularda asralayotgan yosh va o'suvchi jo'jalar va tovuqlarning tezak namunalari kaprologik tekshirishlardan o'tkazilib laboratoriya sharoitida askaridiy tuxumlari va ularning intensivlik va ekstensivlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridan, 56 ta namunadan 31 tasida askarida tuxumlari aniqlanib, invaziyaning ekstensivligi 55 % ni tashkil etdi, intensivligi esa o'rtacha 9,4-38,2 nusxada aniqlandi. Guliston shahar Ulug'obod qo'rg'onida yashovchi aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridan keltirilgan 47 ta namunadan 23 tasida, 49 % ni, intensivlik o'rtacha 10,5-67,4 nusxada tuxumlar mavjudligi qayd etildi.

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani va Guliston shahar (Ulug'obod qo'rg'oni) hududida tovuq askaridioning tarqalishi parrandalarni asrash, oziqlantirish, 2 oylikdan 6-8 oylikkacha bo'lgan jo'jalar hamda yil mavsumining kuz va bahor fasllari sharoitiga keskin bog'liq bo'lib uning ekstensivlik va intensivlik ko'rsatkichlari turli darajalarda kuzatildi.

Natijalarga ko'ra, Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani va Guliston shahar

(Ulug'obod qo'rg'oni) hududlarida tekshirilgan parrandachilik xo'jaliklarida tovuq askaridiozining invaziya ekstensivligi 49 % - 55 % ni tashkil etdi, invaziya intensivligi esa o'rtacha 9,4 – 67,4 nusxada aniqlandi.

2.3.2. Tovuq askaridiozining mavsumiyligi va parranda yoshiga bog'liqligi

Kasallikning mavsumiy dinamikasi va parranda yoshiga bog'liqligi shunday ta'rifladik:

Askaridioz gel'mintozlarning tarqalishini o'rgangan tadqiqotlar (E.H Ergashov, I.V. Sisoyev, A.P. Po'latov, 1973, 1980) ta'kidlaganidek, Respublikamizning barcha mintaqalari sharoitida invaziyalar yilning har to'rtala faslida ham doimiy ravishda uchrab turishini biz ham o'z tadqiqotlarimiz yakunida tasdiqladik. Chunki O'zbekiston respublikasining (Sirdaryo viloyati tumanlari) o'ziga xos o'ta maqbul iqlim sharoiti - kuzning salqin va sernam bo'lishi, qishda sovuqning kuchsizligi va qorning namligi bahorda havoning iliqqligi va namgarchilik gelmintlarining yil davomida to'xtovsiz rivojlana olishiga imkoniyat yaratadi.

N.V.Badanin (1949) va E.H.Ergashevlarning (1973) tavsiyalari bo'yicha chorvachilik sharoitida yil fasllari quyidagi davrlarda iborat bo'ladi:

- 1) qish – 16 dekabrda 15 – martgacha
- 2) bahor -16 martdan -30 aprelgacha
- 3) yoz -1 maydan – 31 avgustgacha
- 4) kuz – 1tentyabrdan – 15 dekabrgacha davom etadi.

Shunisi xarakterliki, gelmintlarning rivojlanishi va ekstensivligi darajasi bahor va kuz fasllarida nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, yoz hamda qish mavsumida ancha past bo'ladi.

Invaziyaning bu holatda o'zgarib turishining tahlili shundan iboratki, bahor va kuz fasllarida Respublikamizning barcha mintaqalari sharoitida kasallik qo'zg'atuvchilarining avj olib rivojlanishi uchun tashqi muhitning barcha omillari – namlik, harorat va boshqalar eng maqbul darajada bo'ladi. Yoz

faslida quyosh nurlarining o'tkir ta'siri, havoning qizishi va namlikning keskin kamayishi invaziya elementlarining rivojlanishiga sezilarli salbiy ta'sirga ega. Qish davrida esa havoning sovushi va ba'zan tashqi muhitning muzlashi tabiiy ravishda gelmintlarning rivojlanishini susaytiradi. Ammo ularning tuxumlari tashqi hayotchanligini saqlab qoladi.

Sirdaryo viloyatidagi ayrim (Guliston tumani) xo'jaliklarning tovuqchilik fermalarida parrandalar 49 % - 55 % gacha askaridalar bilan zararlanganliklarini, shuningdek invaziya barcha yoshdagi parrandalar orasida va yilning barcha fasllarida uchrashi e'tirof etiladi. 2013-2016 yillardagi olingan ma'lumotlarga ko'ra, Sirdaryo viloyati tovuqchilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarida tovuq askaridiozi ko'p uchrovchi gelmintozlardan ekanligi qayd etildi. Tadqiqotlardan, tekshiruvlardan ma'lum bo'ldiki, invaziya mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, tovuqlar 30 - 60% gacha 6 oylikgacha bo'lgan yosh parrandalar esa 60% gacha zararlanishlar kuzatildi.

Askaridiozning ekstensivlik va intensivlik darajalari Sirdaryo viloyati (Guliston, Mirzaobod tumanlari) parrandachilik xo'jaliklarida bahor va kuz faslida ko'proq uchradi, (49 % - 55 %).

Yoz hamda qish faslida yuqoridagilarga nisbatan bir muncha kam tarqalish darajasiga ega (mos ravishda 27,9 % va 21,6 %). Shuningdek, tadqiqot mobaynida a.galli va gallinarum ning tarqalishida tovuqlar yoshining roli ham o'rganilib xo'jalikda 1 – 60 kunlikkacha bo'lgan jo'jalar invazion tuxumlari bilan zararlanisalarda biroq ular organizmida gelmintlar jinsiy voyaga ulgurmasligi aniqlandi. Invaziyaning eng yuqori ekstensiv davrlari 2 oylikdan 6-8 oylikkacha bo'lgan jo'jalar orasida uchrashi qayd etildi, askaridioz invaziyasi mos ravishda 55% uchragan.

2.3. Tovuq askaridiozini gelmitsizlantirishda yangi antigelmintiklarni qo'llash

Ascaridiosis in chickens is one of the helminthiasis which is especially seen much among the growing chickens, Ascaridia galli lives in their thin intestines and brings serious complications and it is caused a great economical damage to farm. This article states the antihelminthic influence indexes of local medicine made in our republic against chicken ascaridiosis.

Bugungi kunda Respublikamiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan chorvachilik sohasi ustuvor vazifalarni bajarishga safarbar etilgan bo'lib, xususan parrandachilik tarmog'ida yuqori sur'atlarda o'sish jarayonlari kuzatilib, hozirgi vaqtda respublikamizda parrandalar soni 60,8 mln boshdan oshgani qayd etilyapti.

Ayni paytda respublikamiz viloyatlari, tumanlarida, aksionerlik jamiyatlarida, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida, tashkilotlar qaramog'ida, yoinki har bir xonadonda parrandachilik bilan shug'ullanayotganlarning salmog'i ortmoqda. Bu ijobiy holat, chunki, tovuq saqlab oilani tuxum, tovuq go'shti kabi mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirib qolmasdan uni bozorga olib chiqish, bozorni parranda mahsulotlari bilan to'ldirish, bugungi kunda oziq ovqat xavfsizligi muammosi davrida aholining parranda mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengaymoqda bu yaxshi, albatta, biroq, parrandachilik rivojlanib kundan – kunga o'sib, ko'payib bormoqda ekan, shu bilan birga bu sohaning yuqori samaradorligini – rentabelligini oshirishda to'siqlar ya'ni tovuqlar orasida uchraydigan ayrim parazitlar kasalliklar (askaridioz) ning muntazam uchrashi mavjud muammolardan bo'lib saqlanib qolmoqda.

